

BIZ BIR BO'LSAK — YAGONA XALQIMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz



VATANPARVAR

MIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 9-avgust, №32 (3094)

VATAN HIMOYASI YO'LIDA

SODIQ DO'ST

4

“KO'Z PISHIB”
BO'LGANIDAN KEYIN...

6-7

TURKISTONDA
MUSTAQIL PARLAMENT
TUZISH HARAKATLARI

10-11

FRONT ORTI TA'MINOTI
MUTAXASSISLARI KUNI

16

KINOLOGIYA: SUYAKDAN
“BOMBA”GACHA

18-19

“PARIJ — 2024” AYNI
AVJ PALLAGA KO'TARILDI



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON: BIRGA OLG'A INTILAYOTGAN IKKI QARDOSH EL

O'zbekiston bilan Qozog'iston Markaziy Osiyo mintaqasidagi aholisi eng ko'p, tabiiy resurslari behad mo'l, iqtisodiy quvvati zaxirasi ulkan, tarixi va madaniyati boy va mushtarak ikki mamlakat. Bugungi tarixiy jarayonda o'zbek va qozoq xalqlari yanada jipslashib, azaliy do'stlik, qardoshlik rishtasi har qachongidan mustahkamlanayotgani barchamizni quvontiradi. Bu ayniqsa ikki mamlakat yetakchilarining o'zaro tashriflarida tasdiqlanayotgan loyihalar, imzolanayotgan hujjatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Dono xalqimiz bilib aytgan: "Maslahatli to'y tarqamas", "To'kis dasturxonida baraka bor". Mana, besh mamlakat rahbarlari navbatdagi maslahat uchrashuviga yig'ilyapti. Dini, tili, tarixi, madaniyati, urf-odati mushtarak, bir-biriga juda yaqin, o'xshash, kim kimligini rang-ro'yiga emas, ko'proq bosh kiyimiga qarab ajratadigan besh birodar – jami qariyb 75 millionli millat, elatlar Osiyoning qoq markazida bir-biriga esh yashaydi.

Shuning uchun ham qadimgi Movarounnahr bugun O'rta yoki Markaziy Osiyo deb yuritiladi. Mintaqadagi qon-qarindosh, urug'-aymoq, ming-ming yillar chegara nimaligini bilmagan qo'ni-qo'shni, yor-birodar birga umrguzaronlik qilgan. Tushlikda qozoq ovulidagi o'tovda beshbarmoq tanovul qilsalar, kechki norin yoki palovni o'zbek choyxonasida, so'rida shirin suhbat ustida baham ko'rganlar.



Beshovlon ulug' Alisher Navoiy, jahongashta Zahiriddin Muhammad Bobur, o'z zamonasining dardkashi Abdulhamid Cho'lpon asarini qanday ixlos va havas bilan qiroat qilsa, turkman elining timsoli Mahtumquli Firog'iyini, O'zbekiston Fanlar akademiyasi faxriy a'zosi darajasigacha ko'tarilgan asl tojik Sadridin Ayniyini, Navoiy nomidagi xalqaro davlat mukofoti sovrindori, qirg'iz millatini dunyoga tanitgan Chingiz Aytmatovni, shoir, faylasuf, bastakor, qozoq milliy yozma adabiyoti asoschisi Abay Qo'nonboyevni, Toshkentdagi O'rta Osiyo davlat universitetida tahsil olgan yozuvchi, dramaturg, olim Muxtor Avezovning doston, qissa va romanlarini sevib o'qiydi, ardoqlaydi.



Aslida ildizimiz bundan-da teran, chuqur. Har gal Qozog'istonga borganimizda Turkistondagi Xoja Ahmad Yassaviy qabri uzra Qur'on tilovat qilib, Amir Temur qurdirgan osmono'par koshona oldida, Mirzo Ulug'bekning qizi, Abulxayrxonning turmush o'rtog'i Robiya Sulton begim qabri uzra duo o'qib, fотиha qilamiz. Ma'lumki, buyuk o'zbek munajjimining qizi, 1485-yili Turkistondagi Yassaviy maqbarasi hududida maxsus qurilgan daxmasag'anada dafn etilgan Robiya Sulton begim Abulxayrxondan Kuchkunji-xon va Suyunchxoja-xon ismli ikki o'g'il farzand ko'rgan. Bu makonda Abulxayrxonning nabirasi, qozoqning uch juzidan kichigiga mansub ilk xonlardan biri – Muhammad Shayboniyxonning avlod-ajdodlari ruhini ham yodlab, Qur'on tilovat qilamiz.

Mozor bosib, dovon-u chegara oshib, O'zbekistonga kelgan Qozog'iston davlati va hukumati rahbarlari, jamoatchilik vakillari – qardoshlarimiz albatta Toshkent shahri Shayxontohur tumanida orom topgan buyuk uch biyi – qozidan biri, yirik siyosiy, davlat va jamoat arbobi To'labiy qabrini to'kis ziyorat qiladi.

O'zbekistonda 800 mingdan ortiq qozoq istiqomat qiladi. Uch yil muqaddam o'tkazilgan aholi ro'yxatiga ko'ra, Qozog'istonda 600 mingdan ziyod o'zbek umrguzaronlik qilmoqda. O'zbeklar tub mahalliy aholi – qozoqlar va ikkinchi o'rindagi ruslardan keyin son jihatidan uchinchi o'rinni egallagan. Millatlarimiz, davlatlarimiz orasidagi birodarlik, qardoshlik, qo'shnichilik ildizi nihoyatda chuqur, qadim-qadimga borib taqaladi.

Biz – o'zbeklar bilan qozoqlar o'rta va oliy o'quv yurtlari milliy mumtoz adabiyoti bo'yicha darslik, qo'llanmalarda deyarli bir xil hajmda o'rganiladigan buyuk alloma Yassaviyning billur suvidek toza hikmatlari, ilohiy ma'naviyati, hayotiy ma'rifati bulog'idan suv ichgan, bahramand bo'lgan ikki xalqimiz.

Qarangki, buyuk Amir Temur umrining so'nggi daqiqalarini O'trorda, Turkistonda o'tkazdi. Qozog'istonda – qardosh qozoq elida omonatini Allohga topshirdi. Sahibqironning oxirgi – Turkiston – Samarqand motam karvoni yo'li, mana, 600 yildan buyon "Temurlan jo'li", Qozog'iston – Chimkent – Katta O'zbekiston trakti deya nomlangan. Yassaviy maqbarasidan boshlanib, Chimkent, Toshkent, Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasiga qadar ikki elni bog'lovchi bu tomir avlod-ajdodlarimiz



xohish-irodasi bilan, olti asrki, Amir Temur shoh ko'chasi deb yuritiladi.



Ikki davlat chegarasini ikki bor kesib o'tadigan bu yo'l bo'yab "Qozog'iston" turarjoy majmuasi, zamonaviy mehmonxona, karvonsaroylar barpo etilgan. Chorrahalarda ikki mamlakat ziyoratchilarini qazi-qartali beshbarmoq, norin, tandirkabob, qimiz, qimron, go'ja kabi milliy taomlar, chanqoqbosdi ichimliklar bilan mehmon qilishadi.

So'nggi yillardagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnik taraqqiyot xalqlarimiz hayotini keskin o'zgartirib yubordi. Kecha ot surib, ko'kpar o'ynagan, qo'y, yilqi boqib, qazi-qarta tayyorlagan yurt bugun yirik neft-gaz qazib oluvchi, temir erituvchi, mis quyuvchi, sun'iy intellekt va innovatsiya yaratuvchi davlatga aylanmoqda.

Qozog'iston bilan O'zbekiston o'ziga xos xususiyatga ega, tabiatan bir-biriga yaqin va qulay joylashgan ikki yirik davlat. Birining aholisi nisbatan kam, hududi bepoyon, ishlab chiqarayotgan mahsuloti mo'l, ikkinchisining aholisi qo'shnisiga qaraganda qariyb ikki barobar ko'p. Biri shimolga yaqin keskin qit'aviy iqlimda joylashgan, ikkinchisi afsonaviy meva-chevaga boy, jannatmonand yurt. Shu yerning o'zida ishlab chiqariladigan sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun qariyb 60 million aholi xarid qiladigan ulkan bozor mavjud.



So'nggi yillardagi eng muhim voqealardan biri Qozog'iston bilan O'zbekiston o'rtasidagi ittifoqchilik munosabati to'g'risida shartnoma imzolanishidir. Siyosiy, savdo-iqtisodiy, tranzit-transport, energetika, fuqaro mudofaasi va boshqa sohalarda hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan mazkur yangi tarixiy hujjatga binoan, ikki davlat iqtisodiy taraqqiyotida sodir bo'layotgan yutuq va kamchiliklarni o'zaro hisobga olgan holda bir-biriga tayanadi, yordam beradi, bir-birini qo'llab-quvvatlaydi. Imzolangan shartnoma-bitimlar nafaqat ikki el farovonligiga xizmat qilishi, balki

dunyoda geosiyosiy tortishuv va taranglik kuchayib borayotgan bir davrda har qanday ziddiyatni mushohada orqali hamfikir hal etish mumkinligini ifoda etgani bilan yanada qadrli.

Qayd etish joiz, mamlakatning bugungi muvaffaqiyatlari zamirida bundan 30 yil muqaddam hech ikkilanmay talvasa terapiyasiga o'tish, bozor iqtisodiyotini joriy etish, bir muddat og'ir hayot kechirib, bor-u yo'qqa bardosh berish, mehnatkash xalqning sabr-toqati, ziyolilar ilmi, tajribasi, uddaburonligiga tayanish qarori yotibdi.

Davr, hayot, iqtisodiy taraqqiyot davlat, jamiyat oldiga yangidan yangi vazifalar qo'yimoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi 11 million Qozog'iston aholisi bugun 20 milliondan oshdi. Serfarzand, bolaparvar O'zbekiston ham 40 millionli chegaraga qarab jadal boryapti. Statistika mintaqada so'nggi 50 yilda aholi uch barobar ko'payganini ko'rsatmoqda.

Endilikda mintaqaning ikki yetakchisi O'zbekiston va Qozog'iston dunyoga ochilib, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar markazlariga aylandi, dunyodagi mavqei sezilarli darajada ko'tarib oldi. Biz ko'p yillar uzoq xorijiy mamlakatlarga borish, jahon tajribasini o'rganishga intildik. Endi dunyo O'zbekistonga – Toshkent, Samarqand, Xivaga oshiqmoqda. Buni so'nggi 3-4 yil ichida ikki mamlakat hududida bo'lib o'tgan nufuzli xalqaro tadbirlar misolida ham ko'rish mumkin.



Iqtisodiy taraqqiyot qonun-qoidasiga ko'ra, davlat, jamiyat rivojida yonilg'i energiyasi miqdori salmoqli o'rin tutadi. Energiya qancha ko'p ishlab chiqarilsa, mamlakat shuncha rivojlanib, taraqqiy etib boradi. So'nggi yillarda Qozog'iston va O'zbekiston yangi energetika manbalarini o'zlashtirish, zamonaviy texnologiyani ishlab chiqarishga joriy qilish yo'lida jadal harakatlanmoqda. Ikki davlat ham o'z hududida atom elektr stansiyalari qurilishi maqsadga muvofiq, deb topdi. Ayni payt nisbatan ancha kam xomashyo, yonilg'i manbaidan ko'p quvvatli energiya hosil qilish rejasi tuzib qo'yilgan. O'zbekiston zaxirasi o'zimizda mavjud bo'lgan uranda ishlaydigan atom elektr stansiyalari qurishni boshlab yubordi. Qozog'iston juda ehtiyotkorlik talab qiladigan bunday obyektning qaysi hududda qurish masalasi bo'yicha referendum o'tkazib, aholi bilan maslahatlashishni mo'ljallamoqda.

Umuman, olg'a intilayotgan ikki mamlakat o'rtasidagi rishta kun sayin mustahkamlanib, davlatlarimiz tobora rivojlanmoqda. Keyingi yetti yilda hamkorlikning barcha yo'nalishlarida sezilarli muvaffaqiyatga erishildi. Hukumatlar, vazirlik, idoralar, hududlar muloqoti muntazamlik kasb etgan. O'zaro savdo hajmi jadal o'sib, qariyb 5 milliard dollarga yetdi. Shavkat Mirziyoyevning Qozog'istonga, Qosim-Jomart Toqayevning O'zbekistonga davlat, rasmiy va amaliy tashriflari ikki mamlakat, ikki xalq o'rtasidagi qardoshlikni mustahkamlab, o'zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan diqqatga sazovor.

Xulosa shuki, do'stona aloqalar, muntazamlik kasb etayotgan oliy darajali uchrashuv va samimiy muloqotlar samarali sheriklik rivojini ta'minlaydigan asosiy omillardir.

Irismat ABDUXOLIQOV,
O'za sharhlovchisi

Gapi ko'p odamning yiqilishi ko'p G'azzoliy til ofatlari haqida

Ulug' ma'rifat sohibi, umrini ma'rifat targ'ibotiga, ma'rifiy tuyg'uning nozik qirralarini kashf etishga bag'ishlagan olim Abu Homid G'azzoliyning til ofatlari to'g'risidagi qarashlari alohida e'tiborga molikdir. Mutafakkirning ushbu masala to'g'risidagi qarashlari mashhur "Ihyou ulumiddin" asarining "Muhlikot" qismidagi "Til ofatlari" kitobida tahlil qilingan.

Til jismimizda kichik a'zo bo'lsa ham, inson hayot faoliyatida katta ahamiyatga ega. Mutafakkir qarashlaridan shu narsa ma'lum bo'ladi, kimki tilning jilovini qo'yib yuborsa, shayton uni jar yoqasiga sudrab, halokatga boshlaydi. Shu sababli insonga eng itoatsiz a'zo tildir. Bu suyaksiz a'zoning osongina harakatga kelishi kutilmagan oqibatlariga sabab bo'ladi. Til ofatlaridan saqlanishning yagona yo'li jim yurishdir, deydi G'azzoliy. U jim yurishning fazilatini Payg'ambarimizning quyidagi fikrlari bilan asoslaydi: "Gapi ko'p odamning yiqilishi ko'p. Yiqilishi ko'p odamning gunohi ko'p. Gunohi ko'p odam jahannamga loyiqdir".

Shu asosda G'azzoliy gapni to'rt turga bo'ladi:

1. Faqat zarardan iborat gap.
2. Faqat foydadan iborat gap.
3. Zarar va foydadan iborat gap.
4. Zarari ham, foydasi ham yo'q gap.

Alloma qarashlariga ko'ra, faqat zarardan iborat gapdan sukut saqlash lozim. Zararidan saqlanish uchun zarari va foydasi bor gapdan ham tiyilgan ma'qul. Na foyda va na zarari bor gap vaqtini zoye ketkazishdan boshqa narsa emas. Eng keraklisi faqat foydadan iborat gap. G'azzoliyning ta'kidlashicha, tilning ofati mana shunda. Agarda faqat foydadan iborat gapga riyo, soxtalik, g'iybat va boshqa ofatlar aralashsa, foyda va zararining chegarasi maxfiylashib, inson xatar ichida qoladi.

Alloma tilning quyidagi ofatlari bor ekanini ko'rsatadi:

birinchisi, behuda gap. Inson na o'ziga, na o'zgaga zarari tegadigan gapni so'zlashi. Ammo bu so'zdan biror foyda ko'zlanmas ekan, bu vaqtini zoye ketkazish yoki behuda gap bo'ladi. G'azzoliy vaqtini mo'minning sarmoyasiga

o'xshatadi. Kimki asosiy boyligi bo'lgan vaqtining qadrini bilsa, uni faqat foydali narsaga sarflaydi. Buni bilish tilni bema'ni so'zlarni aytishdan asraydi.

Ikkinchisi, mahmadonalik.

Bu zarur yoki zarur bo'lmagan gaplarni keragidan ortiq gapirib, laqmalik qilishdan iborat. Maqsadni bitta so'z bilan ifodalash imkoni bo'la turib, ikki, uch so'zga o'tish mahmadonalikdir.

Uchinchisi, botil so'zlarga berilish. G'azzoliy ayollar, ichkilik bazmlari, boylarning aysh-ishratlari, har xil nojoiz marosimlar va boshqa yoqimsiz holatlarni hikoya qilishni botil so'zlarga berilish hisoblaydi. Insonlarning aksariyati shunchaki chaqchaqlashib o'tirish uchun yig'iladi. Ularning suhbatlari kimlarningdir sha'nini mazax qilish yoki botil so'zlarga sho'ng'ishdan nariga o'tmaydi. Alloma botil so'zlardan saqlanishning yagona chorasi gapni qisqa qilish, deb uqtiradi.

To'rtinchisi, bahs-u mujodala. O'zi haq bo'la turib, bahs-u munozaradan kecha oladigan bo'lmaguncha insonning iymoni komil bo'lmaydi, deydi G'azzoliy. Bundan xulosa shuki, tortishuv qalblarni qotiradi va nafrat paydo qiladi. Bahs-u jadal boshqalarning har bir so'ziga e'tiroz bildiraverishdan tug'iladi. Ya'ni tortishuvchan kishi aytilayotgan gaplarning so'zlarida yoki ma'nosida yoki gapiruvchining maqsadida noto'g'rilik bor, degan gumon bilan suhbatdoshiga qarshi chiqaveradi.

Beshinchisi, xusumatlashish.

Inson xusumatlashayotgan paytda tilni chegarada ushlab turishi qiyin. Xusumat qalbni nafratga to'ldirib, g'azabni qo'zg'aydi. Agar insonda g'azab kuchaysa, nima haqida tortishilayotgani unutiladi. O'rtada kek-adovat paydo bo'ladi.

Oltinchisi,

vaysaqilik va takalluf. Vaysaqilik bu so'zga chechanligini ko'rsatishga urinib, gapni uzundan uzoq muqaddimalar bilan cho'zishga zo'r berishdir. Alloma nazdida, har bir narsa muayyan maqsad doirasida chegaralanishi lozim. Undan uyog'i yasamalikdan boshqa narsa emas.

Yettinchisi, so'kish, behayolik. So'kib gapirish, tilni behayo so'zlar bilan bulg'ash o'ta xunuk odat bo'lib, manbai yomonlik va malomat hisoblanadi.

Sakkizinchisi, la'natlash. Xoh jonli, xoh jonsiz, xoh inson, xoh hayvon bo'lsin, bularni la'natlash ayb sanalgan ishdir, deydi G'azzoliy. Tilni la'natlashdan tiyish lozim. Alloma nazdida, "la'nat"ning ma'nosi Allohdan uzoqlashish deganidir.

To'qqizinchisi, beodob ashula va buzuq she'r. Mutafakkir qarashlaridan shu narsa oydinlashadiki, she'r yozish yoki she'r o'qish harom emas, agar u buzuq ma'no va nojo'ya so'zlardan iborat bo'lmasa.

O'ninchisi, hazil-huzul. Alloma hazilning asli qoralangan, ammo yengil darajadagi mutoyibaga istisno tariqasida ruxsat berilgan, deb tushuntiradi. Demak, bu boradagi qaytariq haddan oshgan yoki doimiylik tusini olgan hazil-huzulga qaratilgan. Vaqtichog'lik qilish, qandaydir ermak bilan ovunish ixtiyoriy ish. Ammo o'sha ermakka uzluksiz bog'lanib qolish noto'g'ri.

O'n birinchisi, masxaralash va istehzo. Masxara qilish deganda, mensimaslik, tahqirlash, ayb-u nuqsonlarini aytib, ustidan kulish tushuniladi. Alloma nazdida, masxara va istehzo dilga ozor yetkazgani uchun ham man qilingan ishdir.

O'n ikkinchisi, sirni ochish. Sir ochilar ekan, bunda sir saqlanayotgan narsaga va sirdoshga hurmatsizlik va aziyat bor. Agar zarar yetmaydigan bo'lsa ham sir ochilsa, pastkashlik qilingan bo'ladi.

O'n uchinchisi, yolg'on va'da. Til doimo va'da berishda peshqadam, ammo nafsning berilgan va'daga vafo qilmaslik holati ko'proq. Va'da qat'iy berilgandan so'ng toki uni bajarmaslik uchun uzrli sabab yo'q ekan, va'daga vafo qilish zarur.

O'n to'rtinchisi, yolg'on so'z va yolg'on qasam. Mutafakkir qarashlariga ko'ra, yolg'onni gapirmoqchi bo'lgan kishi yolg'oniga sabab qilinayotgan maqsad rostini gapirishdan muhimroqmi yoki yo'qmi, bu haqda jiddiy o'ylab ko'rishi shart.

O'n beshinchisi, g'iybat. G'iybat o'sha odamga yetib borganda dilini xira qiladigan so'zlardir. G'azzoliy e'tiroficha, tilni g'iybatdan tiyish ilm va amal qorishmasi bilan muolaja qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, Vatanimiz taraqqiyoti xalqimizning har bir vakili erishishi lozim bo'lgan sog'lom ma'rifiy saviyaga bog'liq ekan, G'azzoliyning tarbiya falsafasi, unda til ofatlari to'g'risidagi qarashlari, ularni muolaja qilish yo'llari hozirgi vaqtda kechiktirib bo'lmaydigan darajada zarur va dolzarb.

Inoyat ESHPULATOV



“KO‘Z PISHIB” BO‘LGANIDAN KEYIN...



Harbiy xizmatchilarimizning o‘z kasbiy mahoratlarini muntazam oshirib borishlari uchun dala-o‘quv maydonlarida barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Unda yurt o‘g‘lonlari real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarini olib bormoqda.



Kichik serjant Hayot O‘TABOYEV

Sharqiy harbiy okrugga qarashli harbiy qismlarning birida o‘tkazilgan navbatdagi o‘quv mashg‘ulotida ham otish nuqtalarini to‘g‘ri tanlash, har xil masofadagi shartli nishonlarni turli qurollar yordamida yakson etish, otish pozitsiyalarini belgilangan me‘yorlar asosida o‘zgartirib borish kabi masalalar ko‘rib chiqildi.

Bu kabi o‘quvlar harbiy xizmatchilar uchun nazariy bilimlarini amalda sinovdan o‘tkazib olish imkoniyatini beradi. Shu bois shaxsiy tarkibning jangovar mashg‘ulotlardagi taktik harakati, xato va kamchiliklari, alohida ajralib turadigan xususiyatlari mashg‘ulot rahbarlari tomonidan muntazam ravishda qayd etib boriladi. Navbatdagi nazariy va amaliy o‘quvlarda esa aynan mana shu jihatlarga ko‘proq e‘tibor qaratiladi. Bu kabi yondashuv albatta o‘z samarasini berib, bo‘linma shaxsiy tarkibining jangovar qobiliyati o‘shishiga zamin hozirlaydi.


– Bir qarashda bir-biriga o‘xshashdek ko‘ringan, takroriy elementlar uchraydigan bu

o‘quv mashg‘ulotlarining har birida chuqur ma‘no bor, – deydi mayor Orif Qurbonboyev. – Chunki avvalgi safar betalafot qolgan nishon bu safar yakson etiladi, yigitlarda mashg‘ulotdan mashg‘ulotga tajriba o‘sib boraveradi. “Ko‘z pishib” bo‘lganidan keyin esa real vaziyatlarda harakat olib borish hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Qo‘shinlar salohiyatini oshirishga qaratilgan, harbiy xizmatchilarning malaka va ko‘nikmasini sayqallaydigan yana bir o‘quv mashg‘uloti shu tariqa muvaffaqiyatli yakunlandi.

Xulosa qilib aytganda, nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri va tezkor qaror qabul qiladigan, murakkab jangovar topshiriqlarga oqilona yechim topa oladigan mard va jasur harbiy xizmatchilar har qanday holatda ham jangovar topshiriqni bajarib, ekstremal sharoitlarga tayyor ekanini o‘tkazilgan mashg‘ulotlar davomida isbotladi.

**Katta leytenant
Islomjon QO‘CHQOROV,
“Vatanparvar”**





BIR MAQSAD SARI BIRLASHIB

Qo'shnlarning jangovar shayligi va qobiliyatini yanada oshirish, yurt sarhadlarining ishonchli himoyasini ta'minlash hamda hududlarda tinchlik va osoyishtalikni saqlash bo'yicha kuch tuzilmalarining o'zaro hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan birgalikdagi o'quv mashg'ulotlari o'tkazilmoqda.


Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining qo'shni davlatlar bilan chegaradosh hududlarida

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari hamda Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik, qo'mita va idoralar bilan hamkorlikdagi "Boshqaruv organlari va bo'linmalarining jangovar shayligini tekshirish, davlat chegarasida shartli dushmanning qurolli bosqinini daf etish" mavzusidagi qo'mondonlik-shtab o'quvi ham ayni shu maqsadda tashkil etildi.

O'quv rejasiga ko'ra, davlat chegarasida shartli dushmanni yo'q qilishga qaratilgan real vaziyatga yaqinlashtirilgan harakatlar olib borilib, unga jalb etilgan barcha hamkorlikdagi bo'linmalar jangovar shay holatga keltirildi.

Belgilangan vazifalarni birgalikda bajarish maqsadida kuch tuzilmalarining hamkorlikdagi boshqaruv shtabi tuzilib, ular tomonidan davlat chegarasida yuzaga kelgan vaziyat o'rganildi va dushmanning maqsadi, harakatlari g'oyasi aniqlangach, uni zararsizlantirish va yo'q qilishga qaratilgan jangovar harakatlar rejasi ishlab chiqildi.

Yuzaga kelgan tahdidni bartaraf etish bo'yicha qabul qilingan qarorga ko'ra, kuch tuzilmalarining tegishli bo'linmalari tomonidan sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan harakatlar olib borildi. Mazkur jarayonda shartli dushmanning qurolli



hujumini bartaraf etish maqsadida bo'linmalar tomonidan taktik harakatlar bilan jangovar o'q otish mashg'ulotlari amalga oshirildi va shartli dushman yo'q qilindi.

O'quv yakunida erishilgan natijalar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar va e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar sarhisob qilinib, kelgusida o'quv rejalarining yanada mukammal ishlab chiqilishida mutaxassislar tomonidan bildirilgan mazkur taklif va tavsiyalar inobatga olinishi zarurligi ta'kidlab o'tildi.

O'tkazilayotgan bu kabi mashg'ulotlar barcha kuch tuzilmalarini bir maqsad sari birlashtirib, davlatimiz xavfsizligi, yurtimiz tinchligi va sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash borasida o'rnatilgan o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

TURKISTONDA parlamentchilik haqidagi g'oyaning qaytadan jonlanishi Rossiyada 1917-yil Fevral inqilobi bilan bog'liq. Monarxiya tizimi ag'darilgandan keyin tuzilgan Muvaqqat hukumatning milliy xalqlarga siyosiy erkinliklarning berilishi hududlarda siyosiy jonlanishga sabab bo'ldi. 1917-yil mart oyida Orenburgda birinchi Butunqozoq qurultoyi chaqirildi. Qurultoy dasturida qozoq yerlariga rus muhojirlarini ko'chirishni to'xtatish va o'sha davrgacha ruslar uchun tarqatilgan yerlarni avvalgi egalari qaytarish kabi masalalar bilan birgalikda qozoqlar uchun milliy boshqaruv tizimi – muxtoriyat tuzish g'oyasi o'rtaga tashlandi. Shu yilning 20-martida Muvaqqat hukumat tomonidan "Diniy va milliy cheklolarni bekor qilish" haqidagi qaror e'lon qilindi. Qurultoyda turkistonlik vakillarning qatnashuvi va Muvaqqat hukumatning bu qarori mahalliy ma'rifatparvarlar orasida muxtoriyat uchun kurash bosqichini boshlab berdi.

1917-YIL 7-15-APREL kunlari Toshkentda Turkiston ishchi va askarlari sho'rosi syezdi chaqirildi. Syezdi buyuk davlatchilik shovinizmi ruhida o'tadi. Delegatlardan qo'qonlik o'qituvchi Nekora o'lkada hokimiyat ruslarga tegishli bo'lishi, Malliskiy Toshkentda shahar boshqaruvining yevropalik va mahalliy boshqaruv idoralariga bo'linishi haqida taklif bildiradi. Yevropalik

Turkistonliklar demokratik tamoyillar asosida tashkil etiladigan Ta'asis Majlisi Rossiyada boshqarish shaklini o'rnatishi va o'lkaga muxtoriyat huquqini beradigan konstitutsiyaning ishlab chiqilishiga umid qilgandi. Shuning uchun Rossiya qonunchiligini yaxshi bilgan, rus tilida erkin gapira oladigan va turkistonliklar talablarini amalga oshirishga qodir nomzodlarni tanlash maqsadga muvofiq edi. Shu bilan birga, saylovchilar masalasi ham ko'p tortishuvlarga sabab bo'lgan.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY bu haqda muzokaraga chiqib, saylovchilarning yoshi 18 etib belgilanishini, nomzodlarning, asosan ulamolar orasidan olinishini, ularning rus tilini bilishi majburiy bo'lmasligini va biror partiyaga mansubligi shart emasligi, o'lkadan saylangan vakillar musulmonlar fraksiyasiga birlashishlari muhimligi haqidagi talablarini o'rtaga tashladi. Kabir Bakir bunga e'tiroz bildirib, nomzodning rus tilini bilishi zarurligi, II Davlat dumasidagi musulmon fraksiyasining faoliyati

jarayonida kelishmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Hukumat deputatlar tomonidan tuzilib, parlament oldida mas'uldir. Doimiy qo'shin tuzish shart emas, uning o'rniga militsiya bo'linmalari tashkil etilishi kifoyadir. Saylov umumiy, teng, yashirin va to'g'ridan to'g'ri tamoyillar asosida o'tkazilishi shart. 20 yoshga yetgan fuqarolar saylash va saylanish huquqiga ega. Xalqqa vijdon, so'z, majlislar o'tkazish va shaxsiy erkinliklar beriladi. Bularsiz demokratik respublika tuzish mumkin emas.

Jadidlar ikki palatali parlamentni yoqlamagani sababi ko'p hollarda yuqori palata saylov yo'li bilan emas, balki tayinlanish yo'li bilan shakllantirilishi edi. Bu holatda tenglik tamoyili buzilar edi. Doimiy qo'shin tuzmaslik haqidagi fikrga kelinsa, shuni ta'kidlash lozimki, dastlab Turkiston milliy ma'rifatparvarlar o'lkani Rossiya imperiyasining keng tarkibiy qismi deb tasavvur qilgan, shuning uchun ular Turkistonda milliy qo'shin o'rniga militsiya bo'linmalari bo'lishi yetarli, deb hisoblagan.

PARLAMENTCHILIK haqidagi qarashlar boshqa gazeta sahifalarida ham berib borilgan. "Ulug' Turkiston" gazetasida tatar ma'rifatparvarlari N. Sayfulmalik va A. Tohir tomonidan e'lon qilingan maqola bunga yaqqol misoldir. Ushbu maqolada davlat boshqaruvining respublika shaklida parlamentning o'rni haqida fikr yuritilgan. Ularning fikriga ko'ra, mamlakatni idora etish xalqning qo'lida bo'lishi, "jumhuriyat" deb atalgan respublikani hukmdor o'rnida xalq tomonidan saylangan "prezident" boshqarishi va ma'lum bir muddatga (ikki yoki yetti yilga) saylanishi, aybdor bo'lsa, qonun oldida javob berishi, qonun qabul qilishda uning ta'siri bo'lmasligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Qonun loyihasini yaratish xalq va deputatlar vakolati hisoblanadi. Davlat rahbari qonun loyihasiga o'zgartirish kiritishi mumkin, lekin uni qabul qilish yoki qilmaslik parlament vakolatidir. Prezidentning parlament oldidagi vakolati deputatlar tomonidan qabul qilingan qonunlarni e'lon qilishdir. Qonun qabul qilish bilan parlamentning vazifasi tamom bo'lmay, qabul qilingan qonunlarning ijrosini nazorat qilish ham uning zimmasida, bu ishni vazirlar va davlat amaldorlari orqali nazorat qiladi. Qonunga xilof ish qilgan har qanday amaldor parlament oldida javob berishi kerak. Insonlar uchun vijdon erkinligi, so'z, matbuot, yig'ilishlar o'tkazish, jamiyatlar tuzish erkinligi, boshlang'ich ta'limning umumiy, majburiy va bepul bo'lishi ta'minlanadi. Qisqasi, demokratik tizimda qonun oldida barcha teng bo'lishi kerak, deb ta'kidlanadi.

Maqolada berilgan fikrlarga ko'ra, boshqaruvning demokratik usulida mamlakatdagi barcha hukumat organlari faoliyati parlament nazoratida bo'lib, mamlakat hayotiga doir hech bir ish parlamentning rozilgisiz amalga oshirilmaydi. Mana shu omil maqola mualliflari tomonidan ma'qullanib, Butunrossiya Ta'asis Majlisida boshqaruvning respublika usuli tanlanishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan.

Maqolada berilgan ma'lumotlar bugungi kun uchun oddiy bo'lib tuyulsa-da, o'sha davr uchun juda muhim bo'lgan, chunki u davrda Turkiston o'lkasi aholisining siyosiy savodxonligi talab darajasida bo'lmagan. Shuning uchun davriy matbuot sahifalarida parlament tushunchasining mazmunini keng xalq ommasiga tushuntirib berish g'oyat muhim bo'lgan.

TURKISTONDA

MUSTAQIL PARLAMENT TUZISH HARAKATLARI

Turkistonda mustaqil parlament tashkil etish haqidagi ilk g'oyalar jadidlarning 1906–1910-yillarda nashr etgan gazetalarida paydo bo'la boshladi. Shuning o'zi, ya'ni mustaqillik sari qo'yilgan birinchi qadam mustabid Rossiya imperiyasi sharoitida mubolag'asiz jasorat edi. Podsho hukumati bunga aslo yo'l qo'ya olmasdi. Natijada ma'rifatparvarlik harakati faollari, ya'ni jadidlar ta'qib ostiga olindi. Shuning uchun birinchi rus inqilobidan keyingi siyosiy reaksiya yillarida Turkistonda parlamentchilik g'oyasining rivojlanishi vaqtincha to'xtadi.

vakillarning shovinistik kayfiyati milliy-siyosiy markaz tashkil etish vazifasini tezlashtirdi. Natijada Butunturkiston musulmonlari qurultoyidan oldinroq Turkiston o'lkasi Markaziy Musulmon Sho'rosi tuziladi. Ushbu tashkilot keyinchalik xalq orasida Markaziy Sho'ro nomi bilan mashhur bo'ldi.

Markaziy Sho'roning sa'y-harakati bilan 1917-yil 16-25-aprel kunlari chaqirilgan Butunturkiston musulmonlari I qurultoyida quyidagi talablar ilgari surildi:

- Rossiyada federativ demokratik respublika asosida chekka hududlarga muxtoriyat berish.
- Umumiy, teng, to'g'ri va yashirin asosda barcha fuqarolarga jinsidan qat'i nazar, saylov huquqini berish.
- Butunrossiya Ta'asis Majlisi Rossiyada federativ boshqaruv usulini tanlasa, Turkistonga muxtoriyat maqomini berish, boshqaruvning demokratik respublika usuli haqida qaror qabul qilinsa, Turkistonga muxtor viloyat maqomini berish.

Syezdda Turkistonda mustaqil parlament – Ta'asis Majlisini chaqirish uchun hali vaqt erta, degan qarorga kelindi. Shunday qilib, Turkistonga milliy-hududiy muxtoriyat berilishi masalasi dastlab o'lkasi musulmonlarining I qurultoyida ilgari surilgan edi. Bu g'oyaning vujudga kelishida taraqqiyparvar ziyolilar va "Sho'royi Islom" tashkiloti ta'siri katta bo'lgan. Tatar va boshqirdlar Turkistonga muxtoriyat berilishi masalasida mahalliy ziyolilar bilan siyosiy kurashlarning oldingi saflarida turdi va birinchilardan ushbu g'oya tashabbuskorlaridan bo'ldi.

bunga yaqqol misol ekanini ta'kidlagan. Qurultoyda tatar vakillarining ishtirok etishi mahalliy vakillarning siyosiy masaladagi ba'zi fikrlari o'zgarishiga sabab bo'lgan.

Turkiston o'lkasi uchun muxtoriyat maqomini olish borasida olib borilgan kurash ikki bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda aholi o'rtasida muxtoriyat g'oyasi keng targ'ib qilingan va shu yo'l bilan mahalliy xalqning siyosiy ongi oshirilgan. Ikkinchi bosqichda esa muxtoriyat huquqini olish uchun faol harakatlar olib borilgan.

BIRINCHI DAVR 1917-yilning bahor va yoz mavsumini o'z ichiga olib, bu davrda ma'rifatparvarlar tomonidan matbuot sahifalari orqali zamonaviy demokratik davlat boshqaruvi, unda parlamentning o'rni va roli, muxtoriyat haqidagi fikrlar xalq orasida targ'ib qilingan. Masalan, "Turon" gazetasida Ta'asis Majlisiga tayyorgarlik munosabati bilan e'lon qilingan maqolada bu boradagi dastlabki qarashlar bayon qilingan. Unga ko'ra, kelajakda mamlakatda demokratik respublika tuzumi joriy etiladi. Parlament bir palatadan iborat bo'ladi, chunki Yevropa davlatlaridagidek ikki palatali parlament tashkil etilishi ba'zan qonun loyihalarini muhokama qilish va qabul qilish

MOSKVADA 1917-yil 1–11-may kunlari bo'lib o'tgan I Butunrossiya musulmonlari syezdidan so'ng musulmonlar orasida muxtoriyat haqidagi masala faol ko'tarila boshlandi, chunki syezd musulmon xalqlari uchun milliy-hududiy muxtoriyat berilishini talab qilgan edi. Syezd musulmon aholisining hayoti bilan bog'liq keng doiradagi masalalarni muhokama qildi. Tashkiliy jihatdan mintaqaviy partiya va harakatlar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Butunrossiya musulmonlari Sho'rosi (*Markaziy Sho'ro*) saylandi. Mazkur Sho'roning ijroiya qo'mitasiga Turkiston o'lka musulmonlari Markaziy Sho'ro hay'ati a'zolari U. Xo'jayev va I. Shoahmedov kirdi. Mana shu voqelikdan keyin milliy siyosatchilar orasida mustaqil parlament tuzish, o'lkada yashovchi mahalliy aholi manfaatlarini hisobga oluvchi qonunlar ishlab chiqish g'oyasi ko'tarila boshlandi. Bunga imperiya hududida yashovchi millatlarning muxtoriyat uchun kurashi va ularning erishgan muvaffaqiyatlari sabab bo'lgan. Masalan, litvaliklar, finlar, ukrainlar muxtoriyat olgani, o'z parlamenti va hukumatini tashkil etgani, belarus va gruzinlarning muxtoriyat olish uchun kurash boshlagani, qrim tatarlar milliy harbiy qismlar tuzib, milliy muxtoriyat olish uchun harakat boshlagani haqida xabar berilib, Turkistonda ham Butunrossiya Ta'sis Majlisi qarorlarini kutib turmay, milliy-madaniy muxtoriyat tuzish kerakligi ta'kidlangan.

BUNING UCHUN, avvalo, Turkiston shaharlarida mahalliy boshqaruvni, xalq maorifi sohasini, yer va suv ishlari hamda milliy moliyani tashkil etish kerak edi. Xalq orasida targ'ibot olib borish yetarli bo'lmay, aholini birlashtiradigan siyosiy va ijtimoiy tashkilotlar tuzilishi zarur edi. Bu borada ilk qadam – jadidlar tomonidan 1917-yil mart oyida tashkil etilgan ilk siyosiy tashkilot “Sho'royi Islom” jamiyati edi. “Sho'royi Islom” jamiyati dastlabki kunlardan qo'ng'ir o'z ortidan ergashtira oladigan, nufuzli siyosiy organ ekanini namoyon etdi. Tez orada o'lkaning turli shaharlarida uning shu'balari tuzila boshlandi.

Jumladan, Samarqandda “Marvaj ul-islom”, Andijonda “Ozod xalq”, “Miftah ul-maorif”, “Sana ul-islom”, Qo'qonda “Musulmon mehnatkashlari ittifoqi”, Kattaqo'rg'onda “Ravnaq ul-islom”, Xo'jandda “Muayyan at-tolibin” kabi shu'balari tuzildi. Shuningdek, aprel oyida “Ittifoq”, 15-may kuni esa “Ehtiyot” ittifoqi tuzilib, u o'z oldiga Butun Turkiston musulmonlarini birlashtirish va ularga demokratiya iborasini mukammal tushuntirib, madaniy va milliy ishlarda yordam berish, aholini Ta'sis Majlisiga tayyorlash va xalqni turli zo'raonliklardan muhofaza qilish maqsadlarini qo'ygan edi. Sanab o'tilgan tashkilotlarning hammasi ham siyosiy tashkilot hisoblanmasa-da, ular o'lka aholisi siyosiy faoliyatining jonlanishiga bir qadar ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Turkistonda ko'tarilgan muxtoriyat masalasi milliy-ozodlik harakatining barcha harakatlantiruvchi kuchlarining manfaatlarini tutash tirgan asosiy nuqta bo'ldi. 1917-yilning yozida Turkistonda, bir tomondan, siyosiy kuchlarning jipslashish davri bo'ldi. Ikkinchi tomondan, milliy harakatda tabiiy bo'linish jarayoni davom etdi. Bo'linishning sababi konservativ kuchlarning diniy islohotlar, xotin-qizlar emansipatsiyasi, urushga munosabat, Rossiya va Turkistonda bo'lajak davlat qurilishi, Muvaqqat hukumat tomonidan yuritilgan milliy siyosatga munosabat

kabi masalalarda o'zgacha pozitsiyada turishi edi.

1917-YIL YOZI Butunrossiya Ta'sis Majlisiga saylovlar arafasida turkistonlik taraqqiyparvarlar o'zlarining siyosiy partiyalarini tuzish zaruriyatini anglab yetdi. Taraqqiyparvarlar “Turon” ma'rifiy jamiyatini demokratik tamoyillarga asoslangan partiya aylantirish g'oyasini ilgari surdi. Turkistonlik va ozarbayjonlik islohotchilarning birgalikdagi harakati natijasida Skobelevda (*Farg'ona*) 1917-yil 12–14-iyulda bo'lib o'tgan musulmon tashkilotlari qurultoyida “Turk Adami markaziyati firqasi” tuzildi. Ayni paytda partiyaning maromnomasi (*dasturi*) ham tuzilgan. Maromnomasi 10 bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limning 7-moddasi parlamentchilik masalasiga bag'ishlangan. Unga ko'ra, har bir muxtoriyatga erishgan o'lkada qonun chiqaruvchi organ – Millat Majlisi va qonunlarni ijro etadigan hukumat tashkil etiladi.

“Turk Adami markaziyati firqasi” partiyasining tuzilishi Turkistonda Markaziy musulmon firqasining yuzaga kelishida katta turtki bo'ldi. 1917-yilning avgust – sentabr oylari Turkiston musulmonlarining yagona partiya g'oyasini jipslashish davri bo'ldi. Aynan shu davrda Farg'ona vodiysining Skobelev, Andijon, Marg'ilon, Namangan kabi yirik shaharlarida partiyaning shu'balari tuzildi.

1917-yil yozida Turkiston o'lkasida turli tashkilotlar faoliyat olib bormoqda edi. Masalan, Toshkent shahrining o'zida bu vaqtda 20 dan ortiq tashkilot mavjud edi. Lekin bu tashkilotlarning barchasi ham yetuk siyosiy tashkilotlar emasdi. Siyosiy o'zgarishlar natijasida tuzilgan bu tashkilotlar faoliyatini ma'lum bir tizimga solishga harakatlar bo'lishi tabiiy edi. Bu safar ham tatar va boshqird taraqqiyparvarlari yetakchilik qildi. Masalan, Ahmad Zaki Validiy o'lkada siyosiy tashkilot tuzish masalasida ko'rsatma shaklida bo'lgan “Turkistonda tashkilot” nomli maqolasini e'lon qiladi. Ushbu maqolada siyosiy tashkilotlarning turlari, ularni tuzish usullari, xullas, siyosiy tashkilot tuzish uchun qanday ishlar amalga oshirish zarurligi (*dastur yoki nizomnoma tuzilishi, markaziy boshqaruv tizimi bo'lishi, tashkilot faoliyat ko'rsata olishi uchun moliyaviy manbaga ega bo'lishi va boshqalar*) haqida yo'l-yo'riqlar berilgan.

KEYINCHALIK, 1917-yil kuzida Turkistonning muxtoriyat olish masalasi yana qat'iy tarzda kun tartibiga qo'yildi. I. Shoahmedov “Turk Adami markaziyati firqasi” dasturi asosida Turkiston Dumasi haqida qonun loyihasi tayyorladi. Afsuski, ushbu loyihaning qisqagina varianti saqlanib qolgan xolos. Loyihaning mavjud variantida Turkistonda mustaqil parlament tashkil etish g'oyasi ochiq ko'rinib turadi. Ushbu loyihaning 1-moddasida Turkiston o'lkasi uchun mahalliy (*hududiy*) va milliy muxtoriyat olish talab qilingan edi. Rossiya Ta'sis Majlisiga saylangan turkistonlik deputatlar ushbu masalani Majlisdan talab qilishlari lozim edi.

2-moddada Turkiston o'lkasiga oid barcha masalalar o'lka vakillaridan tarkib topgan Majlisi Ma'buson – Ta'sis Majlisi tarafidan qabul qilingan qonunlar asosida hal etilishi lozim edi. Loyihada Turkiston Majlisi Ma'busoni vakolatiga kirmaydigan masalalar sifatida quyidagilar ko'rsatilgan: o'lkada yashovchi ruslar uchun jinoiy va fuqarolik ishlari, pochta, telegraf, maorif va madaniyat muassasalari, Rossiya mamlakati bilan chet davlatlar o'rtasida bo'ladigan siyosiy munosabatlar va harbiy ishlar.

4-modda Turkiston Ta'sis Majlisiga saylov masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda ta'kidlanishicha, Majlisi Ma'busonga saylov Rossiya Ta'sis Majlisiga saylov bo'lib o'tgandan bir oy keyin amalga oshiriladi. Majlisga saylov haqidagi qonun Rossiya Ta'sis Majlisiga saylov qonuniga hamohang bo'lishi kerak edi. Ushbu moddaning ilovasida Turkistonda Ta'sis Majlisiga saylov qonunlarini tartib etish uchun har bir okrugdan bittadan a'zo saylanib, tarkibida ushbu a'zolar bo'lgan komissiya tuzilishi kerak edi. Ushbu komissiya ishi Toshkent sud palatasi tomonidan boshqarilishi belgilangan.

5-moddada Turkistonning boshqaruv va ichki ishlariga oid barcha masalalar Turkiston Majlisi Ma'busoni vakolatiga kirishi ta'kidlangan. 6-moddada Turkiston Ta'sis Majlisi a'zolari soni Rossiya Ta'sis Majlisiga saylanadigan turkistonlik a'zolar sonidan uch baravar ko'p bo'lishi kerak edi.

7-moddada Turkiston Majlisi Ma'busonida 10 nafar o'lkada yashovchi yevropalik vakillarning bo'lishi belgilangan.

Loyihada fuqaro erkinligi masalasiga ham alohida e'tibor qaratilib, Turkistonda yashovchi har bir fuqaro millati, jinsi va boshqa jihatlardan qat'i nazar, qonun oldida tengligi ta'kidlangan (*8-modda*). Bundan tashqari, Turkistonning ichki va tashqi ishlarda tamoman mustaqil bo'lish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgandi (*21-modda*).

Loyiha matnidan ko'rinib turibdiki, 1917-yilning kuzidayoq Turkistonda mustaqil parlament tuzishni nazarda tutgan qonun loyihasi tayyorlangan. Hatto loyihada Turkiston Majlisi Ma'busoniga saylanadigan a'zolar soni ham aniq ko'rsatib qo'yilgan diqqatga sazovor. Turkiston musulmonlari II qurultoyi yakunida I. Shoahmedov loyihasi va “Turk Adami markaziyati firqasi” maromnomasi ko'paytirilib, har bir viloyatga tarqatilishi, hududlarda ikki loyiha muhokama qilinganidan so'ng qurultoyga taqdim etilishi belgilandi. Uzoq muhokamalardan keyin 1918-yil yanvarida Turkiston Muxtoriyati Xalq Sho'rosi qabul qilgan qarorga ko'ra, Turkiston Ta'sis Majlisi a'zolari soni 234 nafardan iborat bo'lishi haqida qaror qabul qilingan.

1917-YIL SENTABR OYI Turkiston milliy ma'rifatparvarlari o'rtasida siyosiy kurashning kuchaygan davri bo'ldi. Turkiston musulmonlari II qurultoyini rasman tan olmagan “Ulamo” va “Xaloyiq” jamiyati 17–20-sentabr kunlari Toshkentda 500 nafar vakil ishtirok etgan qurultoylarini chaqiradi. Qurultoyda o'lkaning turli hududlari bilan birgalikda Ural va To'rg'ay viloyatlaridan ham vakillar qatnashgan. Ushbu syezdda Turkistonning yer-suv masalasi Turkiston Ta'sis Majlisi ixtiyoriga berilishi haqida qaror qabul qilindi.

Syezdda o'lkaning kelajakdagi siyosiy tizimi haqida 14 moddadan iborat qaror qabul qilinadi. Ushbu qarorning parlamentchilik masalasiga oid mazmuni quyidagilardan iborat edi: Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Kaspiyorti viloyatlari Rossiya tarkibida hududiy muxtoriyat olib, dastlabki davrda o'lkada yashovchi barcha xalqlar milliy-hududiy jihatdan mustaqil hisoblanib, siyosiy birlashmaning nomi “Turkiston Federativ Respublikasi” deb ataladi (*1-modda*).

Turkiston Federatsiyasidagi qonunchilik va o'z-o'zini boshqaruv masalasi Turkiston parlamentiga oiddir. Parlament o'lkada yashovchi barcha xalqlar tomonidan umumiy, to'g'ridan to'g'ri, teng va yashirin ovoz berish yo'li bilan 5-yil muddatga saylanadi (*2-modda*).

Turkiston parlamenti qonunchilik funksiyasi Rossiya Respublikasi asosiy qonunlari va shariatga mos bo'lishi kerak (*3-modda*). Turkiston parlamenti umumdavlat masalalar muhokamasiga ruxsat uchun Rossiya Respublikasi Oliy hukumati tarkibiga o'z vakillarini jo'natadi (*4-modda*). Turkiston federativ parlamenti sessiyaviy shaklda faoliyat ko'rsatadi. Sessiyaning chaqirilish va tarqatilish vaqti bevosita parlament tarafidan amalga oshiriladi. Parlament prezidiumi esa tanaffussiz faoliyat ko'rsatib, bu davrda uning vakolatlari saqlanib qoladi (*5-modda*).

Turkiston Federatsiyasi xalq xo'jaligining butun tarmoqlari parlament tomonidan saylangan va respublika hukumati tomonidan tasdiqlangan maxsus kotibiyat tomonidan boshqariladi (*6-modda*). Kotibiyat Turkiston federativ parlamenti oldida mas'uldir (*7-modda*). Turkiston Federatsiyasining “Mahkamayi Sha'riya” (*Qonunchilik palatasi*) deb ataladigan Senati Toshkent shahrida joylashadi. Senat qonunlar ishlab chiqadi va unga izohlar beradi, qonunlarni shariat asosida mamlakatdagi barcha tashkilotlarda to'g'ri shaklda amal qilishini nazorat qiladi (*8-modda*). Senat raisi “shayxulislom” (*general-prokuror*) deb ataladi va Turkiston Federatsiyasi qonunlari qo'riqlovchisi hisoblanadi (*9-modda*). Senat a'zolari (*senatorlar*) xalq tarafidan umumiy, to'g'ri, teng va yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadi (*10-modda*).

SYEZDDA, shuningdek yer qo'mitalari tuzishni to'xtatish va yerni ijtimoiylashtirishga chaqirildi. Bularning hech biri jadidlar qurultoyidagi muxtoriyat shaklidan keskin farq qilmasdi. Hal qiluvchi farq ulamoning bo'lajak parlamentning ikki palatali bo'lishi hamda din va ayollar masalalariga munosabatida edi. Qurultoyda barcha musulmon tashkilotlarini birlashtiruvchi “Ittifoqi musulimin” nomli partiya tuzildi. Partiyaning tamoyillari shariatga mos bo'lib, “Sho'royi islomiya” kabi barcha mavjud tashkilotlar o'rmini egallashi taklif qilindi. Bu Turkistondagi jadid – ma'rifatparvarlar tomonidan tashkil etilishi mo'ljalangan bo'lajak tashkiliy infratuzilmani yo'q qilishga chaqiruvdan, ulamolarning tajovuzkorona da'vosidan boshqa narsa emasdi.

1917-yil oktabr oyigacha Turkistonda asosan bir palatali parlament tashkil etish masalasi kun tartibida bo'lgan bo'lsa, sentabr oyi oxirida ulamochilar tashabbusi bilan chaqirilgan qurultoyda ikki palatali parlament masalasi ilk bor ilgari surildi. Shu yilning 8–11-oktabr kunlari Toshkentda asosan o'z tarafdorlari vakillaridan iborat Sirdaryo viloyati musulmonlari qurultoyini o'tkazdi. Qurultoyda parlamentchilik haqida sentabr oyida qabul qilingan qaror yana bir bor mustahkamlandi. Bu “Sho'royi Ulamo” vakillari mintaqaning ijtimoiy-siyosiy hayotida shariat qonunlari ustun bo'lishi talabida qat'iy turganini bildiradi.

Partiyaning siyosiy boshqaruv ishlarida ham shariatga asoslangani ma'rifatparvarlarning o'z-o'zidan hokimiyat tuzilmalarida uzoqlashishiga va qarama-qarshi pozitsiyada turishiga sabab bo'lgan. Natijada 1917-yil may oyida boshlangan g'oyaviy qarama-qarshilik rasman bo'linishga olib keldi. Bu keyinchalik Turkiston Muxtoriyati faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ravshan AKBAROV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Farg'ona davlat universiteti

ZAMAXSHARIY IJODIY MEROSI



O'rta asrlar Sharq falsafasi va tilshunosligi hamda badiiy ijodida yuksak ilmiy maktab yaratgan Mahmud Zamaxshariy (*allomaning to'liq ismi Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy bo'lgan*) merosi ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan mukammal ravishda o'rganilmoqda. Shuningdek, alloma buyuk tilshunos lug'atshunos olim Mahmud Koshg'ariydan keyingi leksikologiya sohasida ulkan yutuqlarga erishgan mutafakkirlardan hisoblanadi.

Ushbu allomaning ma'naviy merosini keng mazmunda dunyo tamaddunidan sharaflari o'rin egallashini ta'minlashda Mahmud Zamaxshariy butun bashariyatning madaniyati va ma'naviyati yo'lida qilgan xizmatlarini Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida keltirilgan fikrlari bilan eslashning o'zi kifoya. "...o'rta asrlarda Xorazm diyorida olis Arabistonga borib, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan, ilm-fanning ko'plab boshqa sohalarida ham shuhrat qozongan Mahmud Zamaxshariy bobomizni esga olaylik. O'zining jismoniy nogironligiga qaramay, dunyoning ko'plab mamlakatlariga mashhaqqatli safarlar qilgan, teran bilimi va ilmiy salohiyati bilan butun islom olamini lol qoldirgan bu zot, hech shubhasiz, xalqimiz uchun ma'naviy yetuklik timsoli bo'lib qolaveradi".

Buyuk mutafakkir va tafsirchi olim deya tan olingan Abdulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy 1075-yilning 19-martida Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. Az-Zamaxshariyning yozishicha, yoshligida otdan yiqilib, bir oyog'i mayib bo'lgach, otasi uning tikuvchilik kasbini egallashini istagan ekan. Dastlab otasi qo'lida savod chiqargan va juda chiroyli husnixatga ega bo'lgan az-Zamaxshariy shaharga, ya'ni Ko'hna Urganch (*Jurjon*) madrasasida ta'lim olishga qaror qildi. Keyinchalik Buxoro va Xuroson ilm dargohlarida bilim darajasini yanada oshirgan. Az-Zamaxshariy Buxoroda o'qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo'lib, kotiblik bilan shug'ullanadi, hukmdorlarga yaqinlashishga urinadi. Biroq qobiliyati, ilmi, fazilatiga yarasha biror mansab va munosib e'tibor ko'rmagach, o'zga yurtlarga safar qiladi. Marv, Nishopur, Isfahon, Shom, Bag'dod va Hijozda, ikki marta Makkada bo'ldi. Olim bu yerda ilmiy ishlarini davom ettirdi, arab tili grammatikasi va lug'atini hamda mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqur

o'rgandi, bu mintaqa jug'rofiyasiga oid xilma-xil ma'lumotlarni to'pladi. Adib ko'p asarlarini Makkaligida yaratadi. O'z hayotida chuqur iz qoldirgan Makkada az-Zamaxshariy besh yilcha yashaydi. Shu boisdan u Jorulloh ("*Olohning qo'shnisi*") degan sharaflil laqabga muyassar bo'ladi.

Buyuk mutafakkir az-Zamaxshariy arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jug'rofiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq asar yaratgan, ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan.

Arab tilshunosligi va grammatikasining turli tomonlariga oid asarlar az-Zamaxshariy ijodida salmoqli o'rin egallaydi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid "*Al-Mufassal*" (1121-yil) nomli asarini u Makkada yashagan paytida bir yarim yil davomida yozgan. "*Al-Mufassal*" arab tili nahv-u sarfini o'rganishda yirik qo'llanma sifatida azaldan Sharqda ham, G'arbda ham shuhrat topgan asarlardan hisoblanadi. Ko'pchilik olimlar o'z ilmiy qimmatini jihatidan az-Zamaxshariyning bu asari taniqli arab tilshunosi Sibavayhning (796-yili vafot etgan) arab grammatikasiga oid kitobidan keyin ikkinchi o'rinda turadi, deb ta'kidlagan.

O'sha davrning o'zidayoq arablar orasida ham bu asar katta e'tibor qozongan va arab tilini o'rganishda asosiy qo'llanmalardan biri sifatida keng tarqalgan. Hatto Shom (*Suriya*) hokimi Muzaffariddin Muso kimda-kim az-Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga besh ming kumush tanga pul va sarupu sovg'a qilishni va'da bergan. Bir qancha kishilar asarni yod olib, mukofotga sazovor bo'lgani manbalarda keltirilgan. Bu misol az-Zamaxshariy asarining o'sha davrda ham qanchalik yuksak baholanganini ko'rsatadi. Asarning bir qo'lyozmasi Toshkentda, O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. "*Al-Mufassal*"ning ixchamlashtirilib, muxtasar holga keltirilgan nusxasi "*Al-Unmazaj*" ("*Namuna*") nomi bilan ataladi.

Az-Zamaxshariyning xorazmshoh Alouddavla Abulmuzaffar Otsizga bag'ishlab yozilgan "*Muqaddimat ul-adab*" asari alohida ahamiyatga egadir. Ta'kidlash kerakki, xorazmshohlar

davrida ilm-fan, madaniyat ancha taraqqiy qilgan edi. Hukmdorlar, ayniqsa xorazmshoh Otsiz olimlar, shoir-u adiblarga hurmat bilan qarar, o'zi ham iste'dodli, ma'rifatparvar, adabiyotga qiziqqan, bilimdon odam edi. Uning davrida ilm-fan taraqqiyoti yo'lida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, az-Zamaxshariy "*Muqaddimat ul-adab*"ni uning nomiga bag'ishlab yozgan. Asar beshta katta qismga bo'lingan bo'lib – otlar, fe'llar, bog'lovchilar, ot va fe'l o'zgarishlari haqida bahs yuritadi. Asar 1137-yili yozib tugallangan. Az-Zamaxshariy o'z asarida o'sha davr arab tilining iste'molda bo'lgan barcha so'zlari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e'tibor qilgan. Shu boisdan ham az-Zamaxshariyning bu yirik asarini mazkur yo'nalishdagi dastlabki asarlardan, deyishga haqlimiz.

"*Muqaddimat ul-adab*" arabchadan fors, chig'atoy, mo'g'ul va turk tillariga tarjima qilingan. Manbalarda ta'kidlanishicha, asarning chig'atoy tilidagi tarjimasi az-Zamaxshariyning o'zi tomonidan amalga oshirilgan. Zotan, Xorazmshoh Otsizning tushunishi uchun asarning arabcha matni bilan birgalikda chig'atoy tilidagi tarjimasi ham yaratilgan, deb bilish o'rindir. Olimning "*Asos al-balog'a*" ("*Notiqlik asoslari*") asari asosan lug'atshunoslikka bag'ishlangan. Unda arab tilining fasohati, mukammalligi haqida so'z boradi. Fikrni chiroyli ibora va so'zlar bilan ifodalash, so'z boyligidan ustalik bilan foydalanish uchun kishi fasohat, balog'at ilmlaridan yaxshi xabardor bo'lishi kerak.

Buning uchun so'zni to'g'ri, o'z o'rnida ishlatish, qoidaga muvofiq so'zlash va yozish ham kerak bo'lgan. Bu asarda adabiyotning asosiy qismlari, frazeologik so'z birikmalari, ularni amalda tatbiq etish yo'llari chuqur tahlil qilingan.

Olimning "*Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-xutab*" ("*Xutbalar va va'zlar bayonida oltin shodalar*") nomli asari nasihatimiz maqolalar to'plamidan iborat. Asar birinchi marta 1835-yili olmon olimi Fon Xomir tomonidan nemischaga tarjima qilinib, arabcha matni bilan nashr etilgan. O'ttiz yilcha

o'tgach, fransuzchaga tarjima qilinib, 1886-yili Parijda chop etilgan. 1873-yili ham usmonli turk tiliga tarjima qilinib, Istanbulda nashrdan chiqqan.

Az-Zamaxshariyning "*Rabi' ul-abror va nusus ul-axyar*" ("*Ezgular bahori va yaxshilar bayoni*") asarida adabiyot, tarix va boshqa fanlarga oid hikoyalar, latifalar, suhbatlarning eng saralari jamlangan. Olimning aruz vazni haqida bahs yurituvchi "*Al-Kustos fi-l-aruz*" asari muhim manbalardan hisoblanadi. Alifbo tartibida yig'ilgan arab maqollari, masallariga bag'ishlangan boshqa bir asarini "*Al-Mustaqso fi-l-amsol*" ("*Nihoyasiga yetgan masallar*") deb atadi. "*Maqomat*" ("*Maqomlar*") ellik maqomdan iborat bo'lib, qofiyali nasr – saj' uslubining nozik namunalari o'zida mujassam etgan muhim asardir. "*Devon ush-she'r*" kitobi ham diqqatga sazovor asarlardan sanaladi. Az-Zamaxshariyning "*Navobig' ul-kalim*" ("*Nozik iboralar*") asari esa arab lug'atlarini o'rganishga bag'ishlangan yuksak did bilan yozilgan. Bu asar dastlab fransuz tiliga tarjima qilinib, asl nusxasi bilan birgalikda 1876-yili Parijda, 1870-yili Qohirada, 1884-yili Bayrutda, 1896-yili esa Qozon shahrida nashr etilgan.

Az-Zamaxshariy adabiyot, tafsir, hadis, fiqh ilmlari bo'yicha ham mukammal asarlar yaratgan. Olimning "*Asos al-balora*" ("*Notiqlik asoslari*") asari asosan lug'atshunoslikka bag'ishlangan. Unda arab tilining fasohati, mukammalligi haqida so'z boradi. Fikrni chiroyli ibora va so'zlar bilan ifodalash, so'z boyligidan ustalik bilan foydalanish uchun kishi fasohat, balog'at ilmlaridan yaxshi xabardor bo'lishi kerak. Buning uchun so'zni to'g'ri, o'z o'rnida ishlatish, qoidaga muvofiq so'zlash va yozish ham kerak bo'lgan. Bu asarda adabiyotning asosiy qismlari, frazeologik so'z birikmalari, ularni amalda tatbiq etish yo'llari chuqur tahlil qilingan.

Az-Zamaxshariyning chuqur bilimi, dahosi va fanning turli sohalariga oid o'lmas asarlari hali hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga shuhrat keltirgan. Allomani chuqur hurmat va mehr bilan "*Ustoz ul-arab va-l-ajam*" ("*Arablar va g'ayri arablar ustozlari*"), "*Faxr-u Xvarazm*" ("*Xorazm faxri*") kabi sharaflil nomlar bilan ataganlar. Mashhur olimlar, shoirlar, adiblar davrasida u doimo peshvolardan biri bo'lib, qizg'in ilmiy bahslar, munozaralarda uning fikri inobatga olinardi. Mana shunday ulkan obro'-e'tibor, ehtimol, daho o'z asarlaridan birida "*va inniy fi Xvarazm kaabat ul-adab*" ("*chindan ham men Xorazmda adiblar uchun bir ka'baman*"), deb yozishiga asos bo'lgan bo'lsa kerak.

O'zlik

“Kel-ey, sozim, so‘zlashaylik” (esse)



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

7

Qahhor baxshi hayotida qayg'uli iz qoldirgan o'sha mash'um kunlarni shunday eslaydi:

– Otam bilan elning to'y-hashamlari, xalq sayillariga qatnasha boshlaganimga endigina ikki-uch yil bo'lgandi. Bilmadim, el ko'rib, ko'zi qotsin, davra ko'rib chiniqsin, deyarimidi, meni hech yonlaridan qo'ymasdi. Bir kuni u kishi onamga:

– Qahhor ikkimiz bugun Sherobod tomonlarga yurish qilamiz, bir yaxshi inson to'yiga taklif qilgan, shuni o'tkazib, zudlik bilan izga qaytamiz, ertaga Nishon cho'lidagi eldoshlarimizdan birining ma'rakasida xizmat qilishim kerak, – dedi.

Ota-o'g'il qayerdasan Boychiborning izi qolgan Surxon eli, deya yo'lga tushdik. Bizni otamning suyuqli shogirdlaridan Boboraim baxshi kutib oldi. To'yam to'yjon bo'ldi, besh-o'n kundirki qishloqda “To'yga Qodir baxshi kelyapti”, degan xabar yurganidan so'ng taklif qilingan ham, qilinmagan ham davrani to'ldirgan. Onda-sonda otam bir piyola choy ichib olgunlaricha, Boboraim baxshi ikkovimizga navbat yetar, shunda ham xaloyiq:

– Qodir baxshi aytsin!
– Biz Qodir baxshini deb kelganmiz, – deb guvullar, otam qayta-qayta davraga chiqishga majbur bo'lardi.

Otam ohang bilan, ovoz bilan elni boylagan, kimsan Qodir baxshi bo'lib tanilgan damlar emasmi, bilmadim, bu vido ohanglari ekanini u kishi ichki bir sezim bilan his qilganmidilar, bu yog'i menga qorong'u, do'mbira chertib, dostonon termaga, termadan dostoniga o'tar, ora-sira talablarga muvofiq badihago'ylikka ham o'rin berar, sira charchashni bilmas, go'yo do'mbira oh chekar, sohir ovoz nola qilar, bu dunyoyi dunda shu ikkilikdan boshqa narsa yo'qdek edi. To'y tugamasidan bir necha kishi shu yerning o'zida otamga:

– Baxshi bobo, bizga ham bir kuningizni ajrating, to'yimiz bor, – deb taklif bildirdi.

Ayniqsa, birisi o'jarlik bilan oyoq tirab oldi:

– Siz uchun to'y kunini ertaga ko'chiraman, iltimos yo'q demang?! Otam lafzining ustidan

chiqadigan odam edi, lafzsizlikni benomuslik deb bilardi:

– Kechirasizlar, og'ajonlar, men cho'ldagi bir xonadonga va'da berib qo'ygandim, lafzimni chayqay olmayman, hurmatlaringiz uchun rahmat, agar rozi bo'lsangizlar to'yni o'g'lim bilan shogirdim o'tkazib beradi, – dedi.

Shunday qilib, otam yurtga qaytdi, men izlaridan mung'ayib qoldim. Yuragimni “Katta davrani o'tkazishga kuchim yetarmikin, bu oqshom Qodir baxshining ohanglari maftuniga aylangan el, ertaga bizni qabul qilarmikin”, degan hadik-xavotirlar qoplab olgandi.

Har holda, to'y yomon o'tmadi, Boboraim aka qo'yib men, men qo'yib, Boboraim aka otamning yo'qligini bildirmaslikka urindik. Chiqishimiz xalqning diliga jo bo'ldi shekilli, ertasigayam xonadonlardan birida to'y o'tkaziladigan bo'ldi. Yana davradamiz, kuy-qo'shiq, doston-terma izma-iz davom etyapti. To'y ayni avjiga chiqqan palla davraning bir chekkasida biron sarosimalik bo'ldi, ahamiyat berib o'tirmadim, menga biron bir narsa demadi. Ertasi kuni tongda Boboraim aka:

– Qahhor, ustozning Rahim ismli shogirdi avtohalokatga uchrabdi, bormasak bo'lmaydi, – dedi.

Qancha urinmayin otamning Rahim otliq shogirdini eslay olmadim, shunday bo'lsa-da, Boboraim akaning mashinasida azonlab yo'lga chiqdik. Yuragim takapuka, Boboraim aka mashina ro'lini qishlog'imiz tomon burganini ham anglamay qolibman. Kelsak, uyimiz oldi tumonat olomon, yig'i-sig'i avjiga olgan, dilim zirqirablar ketdi. Onamning:

– Shunqorimdan ayirdim, sog' ketib, omon qaytmagan begimdan ayriliblar qoldim, – degan ovozi, nolalarini eshitib, nafasim bo'g'zimga tiqildi.

Keyin bilsam, ustozim ham padarim, otaginam, ko'z qiymas do'stining mashinasida halokatga uchragan, o'sha biz to'yda xizmat qilayotgan oqshom u kishining jiyani Abdug'afkor meni izlab to'yxonaga borgan, to'yxonadagilar esa:

– Qahhor baxshi bu yerda yo'q, – deb eshikdan qaytarishgan, Boboraim baxshiga:

– To'yni, Qahhorning qo'shiqlarini ko'zimiz qiymadi, – deb bahona qilishgan ekan.

Haligacha shu dahshatli ayriliqqa bag'ishlagan termamni ko'zda yoshlar bilan aytib yuribman:

Cho'lda karvon kelyapti,
oldida nor ko'rinmas,
Osmonda bulutlar ko'p,
tog'larda qor qo'rinmas,
Davom etar yig'inlar,
atrofga zor qarayman,
Kelbatli, salobatli,
ustoz otam ko'rinmas...

8

Oila boshiga tushgan o'sha musibatli kunlar ustoz adib Shukur Xolmirzayevning shoir Azim Suyun haqidagi “Ko'rgan boshqa, bilgan boshqa ekan” esesida shunday tasvirlanadi:

“...bundan bir necha yillar burun Qashqadaryoning Dehqonobodidan eng mashhur, eng savodli hamda eng odamiy baxshi, ziyoli Qodir aka Rahimov Toshkentga nima uchundir kelgan edi. Biz – uning bir necha muxlislari telestudiyadan chiqishini kutdik. Aniq esimda: mana shu do'lvar shoir bilan Eshqobil Shukur ham bor edi.

Chog'imda Usmon Azimning uyiga ketdik. Keyin tong otguncha doston, terma, o'lan eshitdik u og'amizdan... Dumalab-dumalab eshitdik. Yig'lab-kulib eshitdik. Ichdik ham keyin. Dodladik ham... Shu qadar sog'ingan ekanmiz do'mbira sasini ham.

– Ishondim-ishondim, Azimjon, – dedim. – He, Qodir aka bilan o'tirishimiz.

– O, falak! – deb yubordi u. – Shunday odam ham o'tdi, a?! Shukur aka, uning oldiga tushadigan baxshi yo'q edi!

– Rost aytasiz, – dedim munglanib. Xayolimda esa har gal Dehqonoboddan Surxondaryo tomon o'tib ketayotganimda, Qodir akaning darvozasi qoshida mashinamni bir to'xtatishim, baxshining lo'mbillab uyidan chiqishi, quchoqlashib ko'rishganlarimiz... Shunda Azimjonga bergan savolimning javobini saldan keyin olajagimga inonganim uchun bo'g'zimga tiqilib kelgan bir tugunni yutib, hasrat qila ketganimni sezmay qoldim: – Azimjon, u kishining o'limini...

– Ha-ha, – dedi u qoshlari sapchib ketib. – Tovdan uchib ketgan deyishdi.

– Shunday, – dedim. – “Niva”si bilan uchib ketgan?.. To'ydan qaytayotganda...

– Aa, ichgan ekanmi?

– O'sha kezlar biz ham “ichgan”, deb o'ylovdik... Keyin bilsak, uni bir yuk mashinasi turtib yuborgan ekan.

Keyin Qodir akaning og'ziga aroq quyib ketvorgan.

– Voy, vooyo, – deb chayqala ketdi Azim va ko'zleri g'ilq yoshga to'ldi. – Otib tashlasang-da, o'shanday nomardlar! Qoq peshonasidan otsang! Aka, men ovchiman. Yaxshi otaman!.. Ha, kechirasiz, keyin bu sir ochilmadimi?

– Yo'q. Menimcha, ochilmadi, – dedim va yana yuragim ezilib ketdi. Uning qirqi kuni uyiga borib qolganim, bevasi bilan uchrashganim, tusi o'ziga o'xshaydigan lo'mbozdek o'g'ilchasini suyganlarim... ko'z oldimdan ketmay qoldi. – Azimjon, – dedim. – Men akaning qirqi kuni uyiga borib edim. Bir xunuk ish bo'lgan ekan. Aytib beraymi?

– Ha, nima xunuk ish bo'lgandi?

– Xotini yig'ladi, – dedim. – Ha, mening yonimda Fayzulla Qilichev ham bor edi.

Mening mashinamda edik. Boysunga borayotib tushib edik... “Nimaga yig'laysiz, checha? – deb so'radim. “He, oynajon, mana bu nevarangizni bog'chadan haydashdi, – dedi. – Nimaga?! – “Otang tovdan uchib ketgan. Piyon holatida uchib ketgan”, deb. Hozir ichish boynagiday man qilingan-u!.. – A, nima bo'pti?! Bog'chaga buning nima daxli bor? – keyin baqirib yubordim. – U odam – Qodir baxshi! Yagona baxshi! Kim, kim haydadi bog'chadan bu o'g'lonni? Bog'cha mudirasimi? – E, jo'o'q, raykomdi ideologiya sekretari. Bir opay bor. Xudoyning g'azabi!..”

9

Ayriliq yomon, ammo hammasi o'lganning shirin joniga, yillar o'taveradi, judoliklar eskiradi, yaralar malham topadi, biroq san'at olamiga endigina tetapoya qilayotgan yosh baxshi kutilmagan judolikdan keyin tezda o'zini o'nglab olishiga to'g'ri keldi, endi uning zimmasidagi yug'lik barobar og'irlashgandi. U yomon kuylashi mumkin emas edi. Uning qismatiga baxshi bo'lish, baxshi bo'lganda ham el suygan baxshi bo'lish zarb etilgandi. Agar qo'l uchida

kuylasa, nafaqat o'ziga, balki otasining pok ruhiga, qo'lida sayragan soziga xiyonat qilgan bo'lardi. Shunday og'ir damlar unga otasining piri, bir umrga qo'lidan tushmagan sozi madad berdi. Mana, qariyb qirq yildirki u baxshilarning sardori, tug'dey tepasining sayroq tili, “Alpomish” ohanglarining jarangdor so'zi bo'lib yashayapti. 2001-yili o'zi, 2012-yili ukasi Abdumurod “O'zbekiston xalq baxshisi” degan faxrli unvonni olishdi.

– Ammo otamning yo'rig'i boshqa, – deydi Qahhor baxshi. – Tanish-bilishlarimiz “Qodir baxshining so'zi Qahhorga, sozi Abdumurodga, fe'li Bahodirga, ovozi Bahromga o'tgan”, deyishadi. Gapning sirasi, to'rt ul bir bo'lib ham bir otamning o'rnini bosishimiz gumona...

Baxshi istiqloq, yurt istiqboli haqida to'lib-toshib gapiradi, o'zi yashayotgan Dehqonobod tumanida qad rostlagan mo'jizaviy sanoat korxonalarini ta'rifi o'tli misralarga solib, el orasida ta'rif-tafsir etadi:

– Qani edi shu kunlarni otam ko'rganida, chinakamiga qadriyatlar qadr topgan, urf-odatlar yanada shakllangan, muhimi o'zimizni, o'zligimizni angelaydigan zamonlar keldi. Balki otam saksoninchi yillar:

Hulkar bilan tarozi,
Bir-biridan norozi,
Bemahal qichqiradi
Kremlning xo'rozi

deb kuylaganida shu obod zamonlar kelishini ilhaq bo'lib kutgandir.

Istiqloq tufayli biz baxshi-shoirlarning ham yelkasi o'tob ko'rdi. Yurtimizga, istiqloqimizga ko'z tegmasan, 1999-yili “O'zbekiston xalq baxshisi” unvoni ta'sis etildi. Ikki yilda bir baxshi-shoirlar ko'rik-tanlovi o'tkazilyapti. Oynayi jahon dasturidan “Baxshiyona” ko'rsatuvi muqim o'rin egallagan. Yaqinda Navoiyning Sarmishsoyida o'tkazilgan “Asrlar sadosi” tadbirida ishtirok etib keldim. Ko'rsangiz ko'z quvonadi, yetti iqlimdan mehmonlar bor. Ular xalqimizning qadimiy urf-odatlarini ko'rib, lol qolishgani tayin. To'g'ri, ayrim davralarda “Baxshi nimaga kerak, estrada xonandasi yo'qmi”, degan visir-visirlarni eshitib qolaman. Ayyu, birodar, baxshi kim, u kimning dard-hasrati, quvonch-shodligini sozga, so'zga soladi? Shu elning, shu zamonning. Demak, baxshichilik bizning o'zimiz, o'zligimiz. Uni tushunmagan, undan yuz o'g'irgan, o'zidan, o'zligidan yuz burgan sanaladi...

Qahhor baxshining hayajondan ovozi qaltirablar ketdi, mijjonidan yosh qalqdi, ko'zlarini bir nuqtaga jamlab, “Yo, pir-u murshidlarimning ruhi, o'zing qo'lla!” deya, do'mbiraning kosasiga bir-ikki chertib, qo'llarini boshi ustidan aylab-aylab sovuq simlar ustida o'ynatib, ohangga mos tebrangancha:

– Og'ajonlar, baxshining maktabi ham, ustoz ham xalq, u qanchalik ko'p tinglovchisini topsa, el ardog'ida yurganini his qilsa, el-u yurt tinch, dasturxon obod, turmush farovon bo'lsa, shuncha to'lib-toshib kuylayveradi, axir bizning chekimizga tushgani ham shuda, – deb sohir ovozda yangi terma misralarini xirgoyi qilishga tushdi:

OTALardan meros qolgan dostonim,
Qo'llarimda sayrab turgan sho'x sozim,
Qir-adirda yangrab turgan ovozim,
Barisiga fido bo'lsin bu jonim...

Baxshi o'z ovozi va soziga maftun bo'lganday ko'zlarini chirt yumib olgan, barmoqlar parda ustida o'ynar, qo'sh tor moziyning qa'ridan oqib kelayotgan ikki daryo, ikki nahrdek meni ham o'z og'ushiga olib oqib borar, oqib borar, oqib borar edi...

10

...Baxshi pardadan pardaga ovozini ko'tarib boradi. Do'mbira bosim ostida zorlanar, tomoshagohga to'planganlar ko'hna zamin ohanglari og'ushida borliqni unutilib, mayingina tebranardi. Agar siz ham so'z va sozning azal hamda abad singari qadimiyligini, uning mo'jizakor kuchini his qilishni istasangiz umringizda bir bora bo'lsa-da, Qahhor baxshining doston va termalarini miriqib tinglang!

Abdunabi ABDIYEV

Butun dunyoda sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab yuqori. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash esa borgan sari dolzarb ahamiyat kasb etyapti. Ekspertlarning baholashiga ko'ra, bugungi kunda organik (*ekologik toza*) qishloq xo'jaligi – jahon trendi hisoblanmoqda. Organik qishloq xo'jaligi tadqiqotlari instituti (*FiBL*) va Organik qishloq xo'jaligi harakati bo'yicha xalqaro federatsiyasi (*IFOAM*)ning Jahon organik qishloq xo'jaligi statistikasi bo'yicha 2019-yildagi nashrida O'zbekiston meva yetishtirish bo'yicha qulay sharoitga ega bo'lgan dunyodagi 10 ta davlat qatoriga kiritilgan. Respublikamiz organik meva ishlab chiqarish uchun qulay yer maydonlariga ega ekani qayd etilgan.

Ish sifati va hosildorlik



Ha, yurtimizning tabiati o'ziga xos, yeri hosildor va unumli. Bu esa erta bahordan to kech kuzgacha qishloq xo'jaligi mahsulotlari dasturxonimizning ko'rkiga ko'rk qo'shishini anglatadi. Shu bois ushbu soha rivojiga, ayniqsa aholining zarur mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga eng ustuvor masalalardan biri sifatida e'tibor qaratib kelinadi. Zotan, bu ne'matlar hayotimizning, tirikchiligimizning asosiy manbai sanaladi.

Sohada amalga oshirilgan izchil islohotlar tufayli endilikda harbiy xizmatchilarning oziq-ovqat ta'minoti ham dastlabki yillardan ko'ra, boy va rang-barangligi, yuqori kaloriyali mahsulotlar turining ko'pligi bilan ajralib turadi. Bunda, albatta, Mudofaa vazirligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish xizmatining salmoqli hissasi bor.

Vazirlik tasarrufidagi harbiy qism va muassasalarda front orti ta'minoti bo'linmalari tashkil qilingan bo'lib, ular tomonidan yetishtirilayotgan chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, bog'dorchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari shaxsiy tarkib ta'minotiga yo'naltirilmoqda.

Soha mutaxassisleri oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmini oshirish orqali harbiy xizmatchilar dasturxoniga sifatli mahsulotlar yetkazib berishni maqsad qilgan, bu yo'nalishdagi amaliy chora-tadbirlar tufayli yildan yilga ekin maydonlari kengaymoqda, bog'dorchilik, asalarichilik, chorvachilik, baliqchilik, parrandachilik rivojlanyapti. Natijada yillik daromad oshmoqda, yuzlab ish o'rinlari yaratilmoqda. Bu sa'y-harakatlar sohaning jonkuyarlari bo'lgan ko'plab fidoyi insonlarning mardonavor mehnatlari mahsuli sanaladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarixida dehqonchilik, bog'dorchilik madaniyati an'anaviy ravishda mahalliy o'g'itlardan foydalanishni ko'zda tutadigan biologik dehqonchilik tamoyillariga asoslanadi. Bu esa, o'z navbatida, ozuqaviy qiymati yuqori, o'ziga xos ta'm va iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan organik meva va sabzavotlarning yetishtirish imkonini beradi. Chorva hamda parranda yetishtirishda ham shunday tabiiy usullardan foydalaniladi.

Bugungi kunda Mudofaa vazirligining yordamchi xo'jaliklarida **30 ga yaqin poliz ekini** ekilyapti, sarxil mevalar yetishtirilyapti. Bilamizki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning o'ziga xos murakkab tomonlari mavjud. Chunki ba'zi hududlarda yerning

namligi yuqori bo'lsa, ba'zi yerlarga suv chiqmaydi. Mana shunday holatda nam yerlarga sholi ekilib, suv chiqmaydigan hududlarga esa maxsus quvurlar orqali suv tortib o'zlashtirilyapti hamda yildan yilga sabzavot va boshqoqli ekindan yuqori hosil olishga erishilmoqda.

Baliqchilik sohasida amalga oshirilgan islohotlar ham maqtovga sazovor. Ta'kildash joiz bir necha yil oldin soha mutaxassisleri 1 gektar maydonga intensiv ko'l tashkil qilishgan edi. Natija esa kutilganidan ham yuqori bo'ldi. Shu bois o'tgan yilning dekabr oyida 5 gektar yaydoq yer o'zlashtirilib, u yerda chet el tajribasidan kelib chiqqan holda intensiv ko'l tashkil qilindi.

Xo'sh, aslida O'zbekiston sharoitida intensiv ko'l nima uchun zarur? Bu savolga Mudofaa vazirligi qishloq xo'jaligi



ortmoqda



mahsulotlarini yetkazib berish xizmati boshlig'i podpolkovnik Murod Xudoyberganov quyidagicha javob berdi:

– Baliqlar suvdagi harorat -15 gradus bo'lguncha ovqatlanadi. Harorat bundan pasayib ketsa, ular ovqatlanmay qo'yadi. Chunki baliq organizmi tarkibida qon kam bo'lgani uchun sovuqda harakati sekinlashadi. Bu esa, albatta, hosildorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Intensiv ko'llarda esa yil o'n ikki oy davomida baliqlarni ovqatlanirish va hosildorlikni oshirish mumkin. Ma'lumot uchun aytadigan bo'lsak, 2019-yilga qadar Mudofaa vazirligi yordamchi xo'jaliklarida **3-4 gektar** ko'l mavjud bo'lgan bo'lsa, bugunga kelib, barpo etilgan ko'llar hududi **444,58 gektarni** tashkil qiladi. Ularda 2023-yilda **121 tonna 678 kg** baliq yetishtirilgan bo'lsa, joriy yilda bu

ko'rsatkichni **250 tonna 42 kg** ga chiqarishni rejalashtiryapmiz.

Keyingi yillarda chorvachilik sohasida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bu borada erishilayotgan yutuqlar mazkur sohaning istiqbolli ekanidan darak beradi. E'tiborli tomoni shundaki, yordamchi xo'jaliklar o'zlarida chorva ozuqasi bazasini yaratish imkoniga egadir. Shu o'rinda Termiz shahridagi "Navro'z" naslchilik-chorvachilik majmuasida qoramollarga beriladigan ozuqa sifatini yaxshilash maqsadida zamonaviy girdoponika usulida yashil ozuqa yem ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilganini alohida e'tirof etish joiz. Bu usulda tayyorlangan yemishning afzalligi hayvonlarning oshqozon kislotasi miqdorini muvozanatlaydi, yosh hayvonlarning vaznini hamda

sog'in va sut sifatini oshiradi. Yana bir muhim jihat yerga ekiladigan ozuqaning pishib yetilishiga sakkiz oy ketsa, gidroponika usulida ozuqa yetishtirishga yetti kun sarf bo'ladi xolos.

Xulosa qilib aytganda, joylardagi front orti ta'minoti bo'linmalarida ish qizg'in. Shu bois ularning faoliyat qamrovi yildan yilga kengayib bormoqda. Muhimi, ular bugun dehqonchilikdan tashqari, chorvachilik, parrandachilik, issiqxona mahsulotlarini yetishtirishda ham yetakchilikka erishmoqda. Joriy yilda mavjud bog'lardan **407 tonna 295 kg** meva, **10 tonna 320 kg** asal, **8 060 tonna 845 kg** qishloq xo'jaligi, **271 tonna 718 kg** chorva, **398 tonna 310 kg** parranda go'shti, issiqxonalaridan esa **435 tonna 828 kg** mahsulot olish rejalashtirilgan. Mutaxassislar

yil yakuniga qadar barcha yo'nalishlarda shunday yuqori natijalarni qo'lga kiritishni ko'zda tutmoqda.

Yuz marta gapirgandan bir bora ko'rgan afzal, degan gap bor. Yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlari arafasida harbiy qism va muassasa hududlarida, harbiy shaharchalarda front orti ta'minoti bo'linmalari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarkalarining tashkil etilishi yaxshi an'ana tusini olgan. Bu mahsulotlarning bozor narxidan ancha arzonligi diqqatga sazovor. Bu ezgu amaliy harakatlar shu yo'nalishda mehnat qilayotgan insonlarning qizg'in va samarali mehnatidan darak beradi.

**Podpolkovnik
Gulnora HOJIMURODOVA**



Saidnosirova portretiga chizgilar

Birinchi o'zbek kimyogari Zarifa Saidnosirovaning "Oybegim mening" asarini o'qir ekanman, adibaning qanday qilib barkamol ayol siymosiga ega bo'lgani bir zum idrokimni tinch qo'ymas edi. Zero sevimli yozuvchimiz Oybekning rafiqasi hamda birinchi o'zbek rassom qizi Zarifa Saidnosirovaning hayot yo'li boshqalarnikidan farqlidir.



Otasi nihoyatda zehnlilik bo'lib, ayoli va qizlarining savodli bo'lishiga intilgan. Uning qo'lidan hech gazeta va kitoblar tushmas, uy kutubxonasida esa zamonning mashhur yozuvchilarining yangi asarlari doimo joy olgan. Hatto o'sha notinch davrda ham ilmga intilib, maktab qurdirgan. Unda boy-u kambag'allarning farzandlari xat-savod chiqargan. Saidnosir Mirjalil o'g'li Zarifaning ilg'or o'zbek qizlaridan biri sifatida shakllanishida muhim rol o'ynagan. Jajji rassom ilk bor mo'yqalam olib kelgan dadasini shunday yodga oladi: "Toshkentdan chiroyli qutilarga joylangan akvarel bo'yoqlari, mo'yqalamlar olib keldi. Dadam menda rasmga havas borligini bilganmi

qizlari Sharifa va Zarifani Navoiy nomidagi texnikumga olib boradi. U yerda o'zbek adabiyoti va tarixidan savodlarini chiqaradi. O'sha paytdagi xotin-qizlar davrasidagi majlislardan birini yozuvchi shunday yodga oladi: "Majlis o'tkazish uchun soat 12 dan 15 ga qadar bo'lgan vaqt tayin etildi. Istagi bo'lgan har bir xotin-qizni safimizga qabul etish, turli ijtimoiy mavzularda leksiyalar o'qish, gazeta va jurnal materiallari bilan tanishib borish haqida, umuman, bu to'damiz xotin-qizlariga yo'l boshchilik qilsin degan qarorlarni qabul etdik va unga "Yosh kuch" ismini berdik".

Bu kabi guruh faoliyati o'sha muhit xotin-qizlarining jamiyatda o'z o'rnini topishdagi harakati edi. Zarifa opa rasm studiyasiga qatnashib yurgan chog'lari Ahmad Yassaviyning maqbarasini tasvirlovchi rasmlari ko'pchilik e'tiboriga tushadi. Ularning xonadoniga Cho'lpon keladi va mehmon bo'lish asnosida Zarifa opaning rasmlarini ko'rib, Germaniyaga o'qishga borishni tavsiya etadi. Adibning bu taklifiga rassom qiz yillar o'tib shunday fikr bildiradi: "Yaxshiyamki, Cho'lponning istagi ham, dadamning orzusi ham ushalmadi. Aks holda men hayotimning birdan bir ma'nosi va bezagi bo'lgan Oybek bilan uchrashmagan va shunday suyukli 4 farzandning onasi bo'lmagan bo'lardim". Texnikumda o'qib yurgan chog'lari hayot suratining eng yorqin ranglari bo'lmish Oybekni uchratadi. Undan olgan ilk maktubi Zarifaning yuragida allanechuk hislarni uyg'otadi.

Oybekdan olgan ilk she'rini suyuna-suyuna o'qiydi. Hattoki unga javob she'ri ham yozadi. Ammo uni uyat va andisha yuzasidan o'z egasiga bermaydi. Oybek O'rta Osiyo davlat dorilfununining Iqtisodiyot fakultetida tahsil ola boshlagan, Zarifa esa Navoiy texnikumining 3 asosiy sinfini bitirayotgan edi. Zarifa texnikumdagi barcha darslarda faol bo'lib, o'zi ham ma'ruzalar o'qib turgan. Kimyo hamda ta'lim-tarbiya darslarini juda sevardi. Biroq ta'lim-tarbiya muallimining ba'zi gaplariga qarshi bo'lgan: "Qizlar aql jihatidan tuban turadi. Mashhur riyoziyun Sofya Kobalinskaya ham bunga iqror bo'lgan. Ular nechog'li tirishsalar-da, erlardan o'ta olmaydilar".

Oybek bilan suhbatlardan Zarifa o'zini olib qochar, bor xayoli bilim olish-u, hibsdagi dadasida edi. Lekin Oybekning she'rlari juda yoqardi. Oybekning mehriga mehr bilan javob berolmasligidan afsuslanardi. Texnikumni bitirgach, O'rta Osiyo davlat dorilfununining kimyo shu'basiga o'qishga kirdi va bu yo'nalishga o'qishga kirgan birinchi o'zbek qizi bo'ldi. Qolaversa, Zebiniso nomidagi maktabda fizika, kimyodan dars bergan ijodkor olim hayotidagi har bir onni, lahzani kundaligiga yozib bordi. Ana shu parchalardan birida: "Men 1929-yilga qadar bo'lgan voqealarni yozar ekanman, birinchi kundalik daftaringa tez-tez murojaat qilaman. Har bir kishining hayotida, albatta, unutilmas daqiqalar bo'ladi. Unutilishi mumkin bo'lmagan baxtli kunlar, marmarga yozilganday biror so'zi yo'qolmagan suhbatlar, shodliklar, hasratlar, g'urbatlar bo'ladi. Men shularni eslasam, butun hayotimni tiniq bir suv ostida ko'rganday yoki shaffof samodan o'qiganday bo'laman", deb yozadi.

Oybek o'qishni Leningradda davom ettirish chog'ida Zarifa opa ularga "Xayr! Sizga oq yo'!" desa-da, yuragidan nedir uzilganday bo'ladi. Oybek u yerga yetib borishi bilan qator xatlar yozdi. Qalbdan chiqqan ta'sirli satrlardan Zarifa opa

yoki o'zi menda havas tug'dirganmi, bilmadim, harqalay rasm chizishga muhabbat o'sha yillari paydo bo'lgan".

Zamonasining ilmparvarlarga qarshi siyosati hamda ma'rifatli insonlarga qarshi harakati tufayli Saidnosir Mirjalil o'g'li ayni navqironlik chog'i umrining 12 yilini hibsdan va surgunda, ayriqlik azobida o'tkazgan. Sevimli qizalog'i bilan bo'lgan so'nggi suhbatini Zarifa hech ham unutmagani. "Otam Toshkentda birinchi daf'a qamoqda o'tirganda, bir rus matematigi bilan bir kamerada bo'lgan va butun oliy matematika kursini mukammal o'rgangan. Integral, differensial, logarifmni yaxshi bilardi". Onasi ham turmush o'rtog'ining harakati bilan savodli bo'lgan. Muloyim tabiatli, xushfe'l, tom ma'noda erining o'rniga ham ota, ham ona bo'la olgan matonatli va sabrli volidasi Zarifa uchun o'rnak edi. Olimaning hayotida yana bir ibrat maktabi buvisi bo'lib, undan uy-ro'zg'or, umuman, hayot ummonida qanday suzishni o'rgangan. Zarifa opaning oilaviy hayotida og'ir kunlar, yetishmovchilik-u tuhmatlar kelganda, umr yo'ldoshiga dalda berib, o'zi esa sabr bardoshli bo'la olgan. Undagi har bir fazilat, fikr-mulohaza har bir hodisaga oqilona yondashish, or-nomus, ibo-hayoning mujassamligi bilan barkamol ayol sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi.

Saidnosirovlar oilasi Toshkentga ko'chib kelganida, Zarifa rus maktabida o'qishini davom ettiradi. So'ng otasi

qalbida muhabbat gullari kurtak yozgan, orombaxsh sog'inch bilan kunlar o'tkazgan.

O'qish davomida yosh olimani ko'ra olmaganlar "Otasi qamalgan, u boyning qizi" deb uni o'qishdan haydashga uringan. Zarifa bularga e'tibor bermay, bor kuchi bilan chuqur bilim olishga intilgan. Oybek o'pkasini Leningrad qattiq shamollatib qo'ygan va sil kasalligini o'shanda orttirgan. Bu vaqtda Zarifa mehnatkash va mehribon buvisidan judo bo'ldi. 1930-yil 29-iyun kuni zabardast o'zbek adibi Oybek va olimasi Zarifa Saidnosirovaning to'yi samimiy do'stlar, yor-u birodarlar, eng yaqin insonlar davrasida o'tdi. Juma kunlari shahar chetiga chiqib ketishar, Zarifa opa rasm solar, Oybek esa she'r yozardi. Ular maktablar, texnikum va fabrikalarda dars berardi. O'sha yilning yanvarida Toshkentda paxtachilik instituti tashkil etilgan. Zarifa opani shu institutga ustozining tavsiyasi bilan assistent qilib tayinlashdi. U 1930-yilning 1-fevralidan rus tilida ma'ruza o'qiy boshladi. Institutning Kimyo fakultetini tamomlagach, Moskvadagi kimyo zavodiga tajriba o'tkazgani borgan.

1935-yili ikkinchi o'g'li Bekjon, 1937-yili qizi Gulrang, 1939-yili Suyunbek ismli farzandlari dunyoga keldi. Turmush o'rtog'i Oybek esa qizg'in ijodda she'rlar, dostonlar yozishdan tashqari, A.S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. Ular ko'p vaqtini tarjima va ijodda o'tkazdi.

Shunday baxtli kezlarda qora bulutday tashvishlar kela boshladi. Oybekni institutdan "xalq dushmani" deb haydashdi. Zarifa opa o'sha kunlarni shunday xotirlaydi: "Biz har kuni ertalab hali u, hali bu tanishimizning qamalganini eshitamiz, kunlar nihoyatda notinch. Akmal Ikromov va Fayzulla Xo'jayevdan boshlab eng gunohsiz, g'arib bir muallimga qadar barchasi "xalq dushmani" deb e'lon qilingan. Shu qora qirg'in paytida, ayniqsa ziyolilar qirilib ketdi. Hech kim bu qirg'indan chetda qolmadi, deyilsa mubolag'a bo'lmas. Hatto Oybekni ham qamalgan degan gaplar tarqaldi. Na kunduz halovat bor, na tunda uyquda rohat? Har daqiqa tashvish, har daqiqa yurak titroqda..."

Qodiriy, Cho'lpon, Elbek, Usmon Nosir singari ma'rifatparvar shaxslarning hammasi qatl etilgan ana shunday tahlikali va fojiali kunlarda Oybek o'lmas bir asar "Qutlug' qon"ni yaratadi. Adib asar yozish chog'ida rafiqasi bilan obrazlar ismini tanlashda hamfikr bo'lgan. Ammo dard kelsa qo'shaloq keladi, deganlaridek, Zarifa opa avval ToshMI, so'ng Qishloq xo'jaligi institutidan ishdan bo'shatildi. Zarifa opa og'ir kunlarni eslab shunday yozadi: "Biz Toshkentning 4-dahasida yashadik, 4 marta ko'chdik. Bolalar bilan bir xonada yashagan kunlarimiz bo'ldi. Katta xonaning bir burchagiga Oybek uchun yozuv stoli qo'yib, uni uch tabaqali kiyim shkafi bilan to'sganmiz - bu burchak unga ijodxonasi vazifasini bajargan. Boshqa bir burchakda esa kichik bola karavoti bo'lib, bu yotoqxonamiz edi. Hayotdan nolimay, mehnat va ijod zavqi bilan yashaganmiz o'shanda".

"Urush boshlandi! Urush!" Ha, bu ofat edi. Urush boshlanishi bilanoq Oybekning o'g'lonlarga dalda va yupanch beruvchi qator she'rlari bosib chiqarildi. Hayot kundan kunga qiyinlashib borar, oziq-ovqat taqchil, narxlar esa baland edi. "Yashash uchun kurash" deganlariday yosh oila ko'zga ko'ringan barcha narsalarini sotib kun ko'rdi. Oybek yangi romanlar uchun material yig'ish maqsadida urush maydonlarida bo'lib qaytdi. So'ng Fanlar akademiyasi tashkil etildi va unga Oybek a'zo, keyinchalik esa rais bo'ldi. Uning ishlari ham ko'paydi. Urush tugadi. Shu orada Zarifa opaning tobi qochib, 10 oy yotib qoldi. Shunda suyanchig'i, dardkashi bo'lgan Oybekning daldalarini shunday yodga oladi: "Oybekning mehr to'la ko'zlarida tabassum uchqunlanar edi. Menimcha, muhabbatimning chegarasi yo'q. Qalbim uning ikki hovuchiga cho'kkan. Ko'ngillarimizda totli tuyg'ular... Shuning uchun ham ortiq so'zlashga ehtiyoj yo'q. Sukunat. Bunday sukunatning ma'nosi esa teran bo'ladi".

Zarifa Saidnosirova Oybekning ijodiy ishiga xalaqit bermaslikni o'ziga maqsad qilgan. Kechalari ayni ijod pallasi bo'lib, Oybek Zarifaga o'sha kunlarning birida shunday deydi: "Zarifa, bir vaqtlar doston yozishdan avval yaxshi chiqarmikan, deya tashvishlanar, romanni eplay olamanmi, deb uni boshlagani qo'rqar edim. Mana endi istagan narsamni - she'rmi, dostonmi, romanmi, ilmiy asarmi, barini yoza olaman. Hammasiga mahoratim yetadi, boshimda gala-gala mavzular. Lekin afsuski, endi sog'lig'im yo'q, vaqt yetkaza olmayman". Unga javoban quyidagi fikrlarni xayolidan o'tkazadi: "Agar u bir daryo qirg'og'idami, tog'lar orasida istiqomat qilib, tinchgina ijod bilan mashg'ul bo'lsa edi, ne-ne katta romanlar, dostonlar yaratgan, sog'lig'i ham shikastlanmagan bo'lardi". Mehribon va oqila umr yo'ldoshi Zarifa Oybekning romanlarini oqqa ko'chirib, bosib chiqarardi. So'ng gazeta tahririyatiga olib borgan. Oybek safardan bir dunyo yangi romanlar, ijodiy ishlar bilan qaytardi.

Olimasi turmush o'rtog'i haqida shunday yozadi: "Do'st-yorlar mendan Oybek haqida xotiralar yozishni so'rar ekanlar, bu yumush men uchun og'ir ekanini his qilar edim. Haqiqatan Oybek ila kechmish hayotimni eslasam, xuddi qaytadan yashayotganday bo'laman. Ham shirin hissiyotlar, ham ayriliq va hijron hasratlariga to'lib ketadi ko'ksim... Hayotimning har sahifasini, uning qiyofasini, so'zlarini yodlash menga nihoyatda og'ir, lekin keksaya boshlaganimni, mening ham o'tib ketadigan

vaqtim yaqinlashganini ko'rib, bolalarim otalari haqida xotiralar yozib qoldirishimni iltimos qilmoqda. Na iloj, ular iltijosiga quloq osmasam bo'lmaydi. Shoyad ushbu xotiralarim faqat farzandlarim emas, balki Oybek ijodining ko'plab muxlislari uchun ham tansiq bo'lsa..."

Oybekning "Navoiy" romani tez fursatda kitobxonlarning sevimli asariga aylandi. Shunda moskvalik injinerning kelgan xatda: "O'zi Navoiyga o'xshamagan adib Navoiy haqida bunday romanni yoza olmagan bo'lardi" deyiladi. Ha, bu topib aytilgan gap. Shundan so'ng Oybekka qarshi hujumlar boshlandi. Ana shu odamlarni eslab, Zarifa opa shunday yozadi: "Qora yurakli baxil odamlar eng yuksak jamiyatlarda ham tug'ilsa, yashasa va hayotni zaharlasa kerak. Oybekning non-tuzini totib, uning ko'magi bilan oyoqqa turgan kishilar to'planib, Oybekdek ulug' inson va ulug' yozuvchini g'ajishga kirishgan".

Turli zo'riqishlar mukkasidan ketib, tun-u kun ishlash oxiri Oybekni yiqitdi (*yengdi*). Uning ahvoli og'irlashib, o'ng qo'li ishlamay qoldi. So'zlash qobiliyatini yo'qotdi. Shunday kunlarda Zarifa opa yelkama-yelka bo'lib, yonidan ketmay, dardni yengishga undar, so'zlashni mashq qildirardi. Birga sanatoriylar, davo maskanlariga bordi. Tabiblar maslahati-yu, nima davo desa, albatta, uni qo'llab ko'rishdan erinmadi. Oybek endi ancha yaxshi bo'lib, so'l qo'lida yoza boshladi. Lekin ko'pincha Zarifa opa yozib berardi. Ular shunchalik yaqin, bir-biri uchun yaralgandiki, so'zsiz tushunishgan. Oybek mehr taftidan asta-sekin sog'aya boshladi. Adib xasta yillarida ham qolgan yozuvchilarga nisbatan yaxshi va samarali ijod qilgan. Zarifa opa o'sha paytlarni shunday xotirlaydi: "Oybek 17 yil davomida og'ir xastalik ila mardona kurashdi. Men uning kundalik kayfiyati, tilagi, umidini ko'rib bordim, birga his qildim, birga qadam bosdim. Shu sababdan bo'lsa kerak, bu she'rini, qalb nolasini, umidini tinch o'qiy olmayman:

*Xastamen. Fikrga, tuyg'uga to'lib,
Oy menga hamqadam - sokin yuramen.
Sog'aysam, bir kuni yozaman to'yib,
Hislarga qalbmni qo'shib yozaman".*

Zarifa Saidnosirova hayotidagi eng og'ir kunini shunday xotirlaydi: "1968-yil 1-iyulda Oybek vafot etdi. Men hayotimning birdan bir ma'nosi bo'lgan ulug' insondan judo bo'ldim. Bolalarim bir umrga otasiz qoldi. Men hozir Oybekning o'lim oldi kunlarini yozishga qanchalik shaylanmay, qo'lim qaltirab nafasim tiqilib qolmoqda. Qulog'imda hali ham uning "O'lyapman, Zarifa, mendan rozi bo'!" degan so'zlari jaranglab turibdi. Balki Oybekning so'nggi kunlarini keyinroq, musibat olami biroz xira tortgandan keyin yozarman".

Darhaqiqat, Oybekning hali ishlari ko'p edi. Bir qancha roman-u asarlari yozilmadgan qoldi. Zarifa opaga bu katta zarba edi. Mana, yillar o'tdi. Rafiqasining yozganlarida ushbu satrlar ham joy olgan: "Men hamisha bolalarga "Oybekdek ajoyib otangiz bor. Demak, bizning zarradek g'amimiz yo'q. Biz baxtlimiz!" der edim. Mana, endi ko'ngillarimizga mangu g'amlik cho'kdi. Oybek juda kelishgan, ko'rkam, salobatli inson edi. Yuz va ko'zlarining ifodasidan ruhan boyligi, ichki dunyosining kengligi, aql-zakovati, go'zalligi va sofligi ko'rinib turardi. Buni rassomlar ham, haykaltaroshlar ham to'la ifoda eta olmadi. Bu mukammal chehra faqat mening yuragimda qolgan..."

Zarifa opa Oybek bilan salkam 40 yil baxt va mehr og'ushida yashadi. Ayriqliqdan so'ng adibning adabiy merosini to'plab, to'la nashr etish va Oybek uy muzeyini barpo etishga rahbarlik qildi.

Olimasi Zarifa Saidnosirova kimyo sohasida olib borgan salmoqli faoliyati uchun O'zbekiston fan arbobi hamda Oybekning 20 jildlik asarlarini nashrga tayyorlashdagi xizmatlari uchun Beruniy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Shahnoza TOSHTEMIROVA,
jurnalist



Tengqurlarim orasida, to'g'rirog'i biz tengqur avlodlar ichida bobosi borlar nihoyatda kam edi. Bunday baxtga muyassar bo'lganlarga esa havas va armon bilan qarar edik. Chunki nuroniy chehrasi mehr bilan boquvchi, nabiralari bolam-bo'tam deb maslahat va nasihat so'zlarini ayamaydigan, moziy guvohlari bo'lmish bobolari bo'lishini kim ham orzu qilmaydi deysiz. Bizni bu baxtdan, birinchi galda, Sovet tuzumi o'rnatilishidagi beshafqat bostirishlar-u, kollektivlashtirishning qatag'on yillari benasib qilgan bo'lsa, keyingi navbatda, Ikkinchi jahon urushining shafqatsiz janggohlari.

Yoshlik chog'larimiz bir mahalla bolalar ichida birgina dugonamning oppoq soqolli bobosi bo'lib, gohida bozordan qaytayotgan chog'lari ularga peshvoz chiqqan nabiralari qatorida belbog'idagi shirinliklar bilan bizni ham siylab turardi. Kezi kelganda, "Rahmatli bobolaring qanday yaxshi insonlar edi?" deya quloq tamg'asi bilan qatag'on qilingan, yoki urush qurbonlariga aylangan bobolarimiz to'g'risida xotiralarini so'zlab berardi. O'yinqaroq bolalar bo'lishimizga qaramay, biz bu xotiralarni jon qulog'imiz bilan berilib tinglardik.

Dadamning otalari Yunusali bobom kasallik tufayli yosh olamdan o'tgan bo'lsa, buvimning, ya'ni onamning otalari Mirzaakbar qori bobom 1939-yildagi "katta tozalash" davrida quloq qilingan dehqonlar qatori mol-mulki musodara qilinib, yetti yillik qamoq jazosiga hukm qilingan. Bobomga qo'yilgan ayblov; uyida chorakor saqlagan o'ziga to'q dehqon, islom dinini madrasada chuqur egallagan ziyoli inson, shuningdek qishloq imomi bo'lganidir.

Yetti yoshida ota mehridan judo bo'lgan onamning dadalaridan yolg'iz yodgorlik bo'lib qolgan Qur'on kitobini tavof qilib ko'zlarida yosh bilan otalarini eslaganini necha bor guvohi bo'lganman. Yetti yillik qamoq jazosi belgilangan-u, aslida qaytmas bo'lib Sibir o'rmonlariga singib ketgan, bobomning keyingi taqdiri to'g'risida esa farzandlari hech qanday ma'lumot olisholmagan. Uy-joyi musodara qilingach, beshita farzand bilan ko'chada qolgan enamning boshidan o'tgan og'ir kunlarni eslashning o'zi hayotiy bir doston.

Men shahid ketgan bobolarimiz to'g'risida bejiz so'z ochmadim. Dastlab mustaqillikka erishganimizda jang-u jadalsiz qo'lga kiritilgan bu baxt ko'pchilik nazarida go'yoki g'oyibdan kelgandek tuyulgan edi. Aslida esa bu yorug' kunlar uchun millatning eng sara farzandlari o'zligini fido qildi. Sovet tuzumiga qarshilik ko'rsata oladigan, elni ergashtirishga qodir, ziyoli, ishbilarmon insonlar qatag'on qilinib, borsa qaytmas joylarga badarg'a etildi. Eng achinarlisi, bu xunrezliklarning boshida o'zligini yo'qotib, o'z tomiriga, to'g'rirog'i millat ildiziga bolta urgan shu elning farzand deb atashga noloyiq oqpadarlari turdi.

"Dadamning ustidan olib borilgan sud jarayonidagi ba'zi voqealar yodimda qolgan", deya eslaydi onam. – Sudning raisi yig'ilganlarga murojaat qilib, "Sudlanuvchi Mirzaakbar Rahmatillo o'g'li barcha davlat soliqlarini o'z vaqtida to'lagan. Uning ta'kidlashicha, uyidagi qarol deb hisoblangan yigit ota-onasidan yetim qolgani tufayli shu xonadonda tarbiya topib, oilalik bo'lgan ekan. Orangizda shuni tasdiqlaydigan birorta inson bormi? – degan savoliga hech kim javob qaytarmagan. Chunki dadamni bilgan yaqin odamlaridan birortasi sudga chaqirtirilmagan ekan. Faqat shaxsiy adovat-u, kelgindilar taqdim etgan mansab tufayli qishloqning oldi, el nazarida bo'lgan insonlarning ko'plarini boshiga yetgan shu yerlik uch-to'rta hukumat odamlari bo'lmish g'alamislarning bir-biriga qarab,

istehzoli kulib turgan basharasi bolalik xotiramda muhrlanib qolgan. Ammo otam qamaliganidan so'ng bir yilga yetar-yetmas, ularning barchasi turli sabablar bilan olamdan o'tib ketdi..."

O'zingniki o'zagingdan o'tkazar, deb balki shuni aytishar. Mana, vatanfurush, manfur insonlar tufayli daholarini dunyo tanigan xalq mustamlakachilikning mustabid tuzumi ostida yuz yildan ziyod istibdod jabrini tortdi. Tili, dini, urf-odatlar tahqirlandi. Sobiq Ittifoq uchun xalqi qul-u, bag'ri xomashyo bazasiga aylangan Turon eli dunyo nazaridan chetlatildi. Uzoqni ko'ra oladigan, millatparvar farzandlaridan ayrilgan elning yangi avlodi esa Ittifoq, deb atalmish mustabid tuzumning manqurtlik qolipida tarbiyalandi. Ular hatto o'zining qulligi-yu, asl tarixini, bobolarining qay darajada ulug' insonlar bo'lganini sezmay ulg'aydi, ajdodlari sha'niga savodsiz, qora xalq muhri bosildi.

Har narsaning ibtidosi va intihosi bo'lgani kabi yigirmanchi asr boshida qora ko'lankasi Turon elini qoplagan zulmat qasri ham asr so'ngigiga kelib, erk deb atalmish buyuk haqiqatning o'tkir nurlari poyida parchalandi. Mustamlakachilikning yangicha ko'rinishida o'zligini ixtiyoriy birlashgan davlat deb e'lon qilgan sobiq Ittifoqning mustabidlikka asoslangan haqiqiy basharasi namoyon bo'ldi.

Millat erki yo'lida qatag'onga uchrab shahid ketgan milliy arboblarmizdan tortib, "quloq" tamg'asi bosilgan mehnatkash dehqon bobolarimiz sha'nidagi dog'lar ko'tarildi shu kun. Hurriyat nuri g'aflat iskanjasidagi xalqimizning ongi bilan birga kelajak yo'lini ham yoritdi.

Istibdod zulmidan ozod bo'lgan xalqimizning bu tengsiz baxtga muyassar bo'lganiga ham mana, o'ttiz uch yil to'ldi. Mana shu o'tgan sinov davrida yurtimiz o'zligini dunyoga tanitib ulgurdi. Eng asosiysi, xalqimiz ko'ksiga tekkan erk shabadasi ajdodlarimiz-u, tariximizga, tilimiz, dinimiz, urf-odatlarimizga nisbatan qo'llangan milliy kamsitishlar o'rmini g'urur va faxrlanish, o'zligimizni qayta kashf qilish bilan to'ldirdi. Ammo moziyga – o'tgan tariximizga muhrlangan og'riqli o'tmish hech bir yurtidoshimizning yodidan ko'tarilmasligi shubhasiz. Ayniqsa, bizdek bobolarisiz o'sgan avlodning.

Bizga dadam uqtirganidek men farzandlarimga uqtiraman; millat erki-yu sha'ni yo'lida shahid ketgan, o'z Vatani badarg'a etilib, muhojirlikda armon bilan o'tgan bobolarimiz-u vatandoshlarimiz haqqi, erk atalmish buyuk baxtni joningiz-u oringizda saqlang! Mustabid tuzum tufayli bevalikka mahkum etilib, bir etak go'daklari bilan turmushning og'ir yukini yelkasida tutgan momolarimizning chekkan azob-u uqubatlari, sabr-u sitamlari hurmati u kunlar qaytarilmasligi uchun o'zligingizni unutmay yashang! Tarixda buyuk davlat bo'lgan Turon elining shonini tiklab, kelajak avlodlarga yetkazmoq yo'lida fidoyi bo'ling! Toki bu yurt uzra hurriyat yalovi mangu va sarbaland tursin. Shundagina Turon zaminida adolat va hurriyat hukmdori bo'lgan Amir Temurdek buyuk ajdodlarimizdan tortib, yurt ozodligi yo'lida shahid ketgan millatparvar jadid bobolarimiz ruhi oldidagi qarzimizni uzgan bo'lamiz. Shundagina kelajak avlodlar bizdek bobolarisiz ulg'aymaydi!

*Siz-la dardlashmoqni istadi baytim,
Ammo armonimni tuproqqa aytdim.
Ramziy qabringizdan bosh egik qaytdim,
Yurtga armon bo'lib bitilgan bobom,
Beqasam to'nlarda otilgan bobom.*

*Tashna mehringizsiz o'sgan avlodmiz,
Mahkum ortingizdan topolmadik iz,
Qaylarga jo bo'ldi xoki-pokingiz,
Erksevar avlodim ildizi bobom,
Elsevar o'zbekning haq so'zi bobom.*


*Vatan toleiga jon tikkan jonim,
Qo'limdan tutmagan bitmas armonim,
Millatim g'ururim tutguchi shonim.
O'lmas o'gitlari nur-ziyo bobom,
Iymon e'tiqodda avliyo bobom.*

*Siz qilgan bashorat ijobat bu kun,
Yurtimdan chekindi riyozat bu kun,
El ozod – Hurriyat inoyat bu kun.
Orzusi murodbaxsh ulug' zot bobom,
Ozod Vatanimda ruhi shod bobom.*

Zulfiya YUNUSOVA

Bobolarim kutgan onlar bu





**Abdulla
ORIPOV,**
O'zbekiston Qahramoni,
xalq shoiri

VATAN ULUG' PIRGA O'XSHAYDI GOHI

IMTIHON

Sen Vatan haqida berma ko'p savol,
Lof urma Vatanning muhabbati deb.
Uni mansab kabi aylama xayol,
Yoxud ma'ruzangga emasdir u zeb.
Vatan tanangdagi jondir, qondir bu,
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Bu ulug' sevgida ilohiylik bor,
Vatanni chin farzand faromush etmas.
Menga o'z tuyg'umni o'rgatma zinhor,
Inchunin, kibrning bozori o'tmas.
Rost gapni yolg'ondan farqlar ondir bu,
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Asl qahramon kim yorug' dunyoda?
G'oyasin tamaga almashmagan zot.
Chug'urchuq ko'paysa haddan ziyoda,
Burgut bo'lib yashash oliy mukofot.
Qul ham yurtin sevsa shohdir, xondir bu,
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Garchi ko'hna zamin umum makondir,
Insonning har joyda yonsin chirog'i.
Mo'jaz bo'lsa hamki, kulbang oshyondir,
Ona dargohidek uning quchog'i.
Sen uchun poyonsiz kahkashondir bu,
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Azal musofirdir dunyoda odam,
Ruhim garchi sobit, muallaq tanim.
Bir umr qo'yiningda muqim tursam ham,
Sog'inib yashadim seni, Vatanim.
Mehr bir, nafrat ham bir tomondir bu,
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Mayli, suymasinlar meni g'animlar,
Yo'limni to'ssinlar raqiblar hatto.
Vatan har qayda ham mayoqdek imlar,
G'ururim yuksalar samogacha to.
Hech kimga berguvsiz dovrug', shondir bu,
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

XALQIM

Agar bola bo'lsang, bag'rimga bosib,
Yelkamda ko'tarib yurarman, xalqim.
Agar ota bo'lsang, senga munosib,
Tayanch, aso bo'lib turarman, xalqim.

Dunyoda ko'p erur shahri azimlar,
Muhtasham qasrlar, oliy bazmlar.
Qurshagan chog'da ham e'zoz, ta'zimlar,
Davramni sen bilan qurarman, xalqim.

Umr-ku o'tajak, fano muqarrar,
U yoqdan hech kimga kelmagan xabar.
Mabodo jannatga bo'lsam muyassar,
Shunda ham xayoling surarman, xalqim.

Gohida rizqingdan qolding ayrilib,
Mayli, o'tgan o'tdi, boqma qayrilib,
Kelsa baloxo'rlar, qo'lin qayirib,
Boshini toshlarga urarman, xalqim.

Zaminning ayqirgan daryolari bor,
Tonggi shabbodalar taratar ifor.
Menda bo'lib qolsa, bir zum ixtiyor,
Barisin sen tomon burarman, xalqim.

Sen zavol topmading, qolmading horib,
Suv kelsa sipporib, toshni qo'porib.
Men kim shoir o'g'ling Abdulla Orif,
Ertan kamoling ham ko'rarman, xalqim.

VATAN FARZANDI

Goho yosh bolaga o'xshaydi Vatan,
Sodda, norasida, pok va beg'ubor.
To ozor yetmasin, unga daf'atan,
Begona ko'zlardan asramoq darkor.

Vatan ulug' pirga o'xshaydi gohi,
Qo'llagay, aritgay ko'zdan yoshlarni.
Yursa, tovoniga botmasin toki,
Yo'ldan olib qo'yning har xil toshlarni.

Kim uning xizmatin etolsa ado,
Ikki dunyoda ham bo'lmagaydir kam.
O'zini tamsiz qildimi fido,
O'sha zot Vatanga farzand chinakam.

SOG'INCH

Parchagina bulut,
Cheksiz osmon,
Adir ortidagi yolg'izoyoq yo'l.
Barcha tashvishlarni unutib, shodon,
Qaytgim kelayotir qoshingga butkul.

Qismat mayin ichdim – achchiq va taxir,
Tuydim ehtirosning samoviy kuchin.
Dunyoda odamzod yashamas, axir,
Faqat irodasin sinamoq uchun.

Parchagina bulut,
Cheksiz osmon,
Adir ortidagi yolg'izoyoq yo'l.
Barcha tashvishlarni unutib, shodon,
Qayta olsam edi qoshingga butkul.



KINOLOGIYA: SUYAKDAN “BOMBA”GACHA

Mudofaa vazirligi Kinolog mutaxassislarini va xizmat itlarini tayyorlash markazining so'nggi yillarda qo'lga kiritgan yutuqlari-yu ko'rsatgan natijalari haqida hech bo'lmasa bir marotaba eshitmagan odam kam topilsa kerak. Tashkil etilganiga endigina uch yildan oshgan markaz faoliyatini to'g'ri va samarali yo'lga qo'ygani bois sezilarli ishlarni amalga oshirishga ulgurdi.

Jahon talablariga to'liq javob bera oladigan markaz o'z o'rnida kinologiya sohasi rivoji uchun munosib hissa qo'shib kelmoqda. Xususan, kuch tuzilmalari uchun malakali mutaxassis-kinologlar va xizmat itlarini tayyorlash keng yo'lga qo'yilgan. Markazda saralash, mutaxassislarni tayyorlash va malaka oshirish kurslari mavjud bo'lib, bu kurslar tegishli dasturlar bo'yicha tasdiqlangan reja asosida yil davomida Mudofaa, Ichki ishlar vazirliklari va O'zbekiston Milliy gvardiyasi qo'shinlari kinologiya bo'linmalari mutaxassis-kinologlarini o'qitish bilan shug'ullanib kelmoqda.

Mudofaa vazirligi qo'shinlaridagi mutaxassis-kinologlar ishtirokida malaka oshirish kursi bo'lib o'tdi. Unda kinologlar o'zlariga birlashtirilgan xizmat itlari bilan amaliy hamda nazariy bilimlarini mustahkamlashdi.

– Tarixdan yaxshi ma'lumki, insoniyat qo'lga o'rgatgan ilk jonivorlardan biri itlardir, – deydi mayor Shodiyor Shomurodov. – Bu aqlli jonivorlar bugungi kunda ham odamzodga sodiq do'st sifatida beminnat xizmat qilayпти. Markazimiz tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturi asosida Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan kinologlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida o'quv jarayonlari tashkil qilinmoqda. Harbiy xizmatchilarga o'z xizmat itlari bilan birgalikda

harakat olib

borishlarida, itlarning salomatligi, belgilangan ko'rsatmalarni to'g'ri va aniq bajarishida zarur nazariy bilimlar berildi. Shundan so'ng ular dala sharoitida berilgan topirishlarni bajarib, bilimlarini mustahkamlashdi. Bu malaka oshirish kursimizning yana bir ahamiyatli tomoni kinologiya sohasida ham zamonaviy qurilmalar, kuzatuv kameralaridan samarali foydalanishni ommalashtirishdan iborat bo'ldi.

Amaliy o'quv mashg'ulotlarni kuzatar ekanmiz, aqlli jonivorlarning sezgirligi hamda topshiriqlarni bekam-u ko'st bajara olish ko'nikmasiga ega ekani, o'z egasi bilan uzviy bog'liqlikda harakatlanishi kishini lol qoldiradi. Mashg'ulotlar vaqtida jonivorlar sezdirmay dushmanga yaqinlashishi, nostandart vaziyatlarda shovqinlarga bardoshli ekani, asosiy maqsadidan chalg'imasligi va qo'rqmasligi muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonlarda jonivorlar puxta tayyorgarlikdan o'tgani amalda namoyon bo'ldi. Unda jamoaviy ishlash, topshiriqlar payti itlarning o'zini tutishi, jangovar mahorati qay darajada shakllanganini kuzatishingiz mumkin.

O'quv nuqtalarining birida sinovlar suvli va o'rmon sharoitida, real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan maxsus topshiriqlar asosida davom etdi. Tabiiy to'siqlarga duch kelganda itlar ham harbiy xizmatchilar qatori vazifalarni mukammal bajarishi harbiy xizmatchi va itlar orasida o'zaro ishonchning, ruhiy bog'lanishning mustahkamligiga bog'liq.

– Ma'lumki, itlarning hid bilishi insonlarga qaraganda anchayin yaxshi rivojlangan, – deydi III darajali serjant Otabek Ro'ziyev. – Bu esa razvedka harakatlarida katta yordam beradi. Xavfni erta aniqlash, dushmandan ogoh etishda harbiy xizmatchiga vazifalarni talafotsiz bajarishiga ko'maklashadi. Malaka oshirish kurslari davomida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlarida xizmat itlarimizning mana shunday qobiliyatidan samarali foydalanish bo'yicha ham ko'nikmalarimizni oshirdik. Xizmat itlari har jihatdan



jangovar vazifalarni bajarishda muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda.

Qobiliyatiga ko'ra, xizmat itlaridan ma'lum bir maqsadlarda foydalanish kutilgan natijani beradi. Navbatdagi o'quv nuqtasida shartli dushmanga qarshi jangovar vazifalar olib borildi. Bunda itlarning qobiliyati, o'z egasiga ishonchi, hamjihatlikda harakatlanishi, shuningdek insonlarga vafodor do'st, mamlakatimiz tinchligi yo'lida ham sodiq xizmatchi ekani yana bir bor o'z isbotini topdi.

Mudofaa vazirligi tizimida yigirmaga yaqin markaz faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda Vatan posbonlarining bilim va ko'nikmalari, tajribalari boyitib kelinmoqda. Mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazi ham shular jumlasidan bo'lib, mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tizimida xizmat itlaridan muhim obyektlarni qo'riqlash, buzg'unchilarni qo'lga olish, shuningdek qidiruv-qutqaruv ishlari va yana boshqa ko'plab maqsadlarda keng foydalanib kelinadi. O'z o'rnida mazkur markazda soha rivoji yo'lida yangi g'oya va maqsadlar bilan istiqbolli rejalar ustida izlanishlar olib borilmoqda.

Ro'ziqul OCHILOV,
“Vatanparvar”

Risolat xonadoniga bexosdan tashrif buyurib, o'zini ijtimoiy xodim deya tanishtirgan ayolni uyiga taklif qilar ekan, ko'ngliga shubha oraladi. "Firibgar bo'lsa-ya, yaqinda qo'shnilar uyma-uy yurib, o'zlarini davlat xodimi deb tanishtirib yurgan ayollar oqibatda firib yo'li bilan pul o'zlashtirayotganlar bo'lib chiqqani haqida aytishayotgandi. Negayam taklif qildim o'zi?" Risolat xayolidan shularni o'tkazar ekan ijtimoiy xodimga sinchkovlik bilan razm soldi. Buni xodim sezdi chog'i uzr so'rab, hujjatlarini ko'rsatdi. Biroz tanishuvdan so'ng Risolat xodim so'ragan savollarga javob berar ekan, anchadan buyon yuragini tosh bosib yotgan dardini aylishga o'tdi. Uch nafar nogiron bola tarbiyasi, kasalmand qaynota va qaynona, oilada yakka-yu yagona boquvchi – turmush o'rtog'ining tashvishlari haqida so'zlay ketdi.

YETTILIKNING YETTINCHI A'ZOSI



Uy bekasining achainarli hayoti yaqindagina ish faoliyatini boshlab, xatlov jarayonida yurgan ijtimoiy xodimning yuragini iztirobga soldi. Xonadondan chiqar ekan, ish rejasini o'ylagancha navbatdagi xonadon eshigini qoqdi.

Garchi mamlakatimizda Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilganiga hamda mahallalarda kompleks xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy xodimlar faoliyati yo'lga qo'yilganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, xodimlar faoliyatining samarasi birin-ketin ko'zga tashlanmoqda. Aholi qatlami endilikda "mahalla yettiligi"ning yettinchi a'zosini tanimoqda va ular xizmatidan foydalanishga harakat qilmoqda.

Hozirda yangi tizim faoliyatiga doir ayrim toifaga kiruvchi aholi qatlami hayoti chuqur o'rganilmoqda va natijada samarali ishlar tashkil etilmoqda. Jumladan, o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan

yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar aniqlanib, ularga huquqiy, maishiy va tibbiy xizmatlar ko'rsatilyapti. Qolaversa, nogironligi bo'lgan shaxslarga protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalarini ajratish uchun sertifikat rasmiylashtirish bo'yicha arizalar qabul qilish, buyurtmalar berish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishda ko'maklashmoqda. Bunda joylarda tashkil etilgan "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi shu'ba mudirlari bilan hamkorligi, ayniqsa o'rinli.

Qolaversa, ijtimoiy xodimlar kam ta'minlangan oilalarning bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam tayinlashga ariza qabul qiladi. Shuningdek, oilalarning ijtimoiy ahvoli o'rganilib, individual ish rejai orqali mavjud muammolarni "mahalla yettiligi" bilan hamkorlikda yechishga yordam beradi.

Jumladan, og'ir ahvolga tushib qolgan shaxslar

va oilalarni o'rganadi va xizmat ko'rsatish bo'yicha takliflar tayyorlaydi. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning qarindoshlari orasidan bolani vasiylikka yoki homiylikka oluvchilarni aniqlaydi va ular to'g'risida ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organiga yuboradi. Shuningdek, hayoti va sog'lig'iga bevosita xavf mavjud bo'lgan, zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar va bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni tegishli vakolatli organlarga yo'naltiradi.

Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy xodim har bir xonadon ahvolini o'rganib, yuqorida keltirilgan toifaga kiruvchi shaxslarni baholab, "mahalla yettiligi" hamkorligida ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatadi. Bunda kezi kelganda, jamoatchilik fondlari, nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Darhaqiqat, ijtimoiy xodim – u tom ma'noda ko'makka muhtoj oilaning chin dardkashi, yillar davomida yurakni

ezayotgan muammolarga malham inson. Aholining ayrim toifadagi shaxslar uchun imkoniyatlar eshigini ochib beruvchi, davlat va ehtiyojmand aholi, o'rtasida ko'prik vazifasini o'tovchi xodimdir.

...Oradan ko'p vaqt o'tmay, Risolat nogiron farzandlarining ta'limga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib, ijtimoiy xodim ko'magida "G'amxo'rlik" guruhlariga yozildi. Qaynona va qaynotasining qayta tibbiy ko'rikdan o'tishida shifokorlar tavsiyasi bo'yicha muolajalar ola boshladi. Anchadan buyon rejalashtirib yurgan, biroq imkonini topolmagan tikuvchilik sexlaridan uyda ishlash uchun buyurtmalar olib, bo'sh vaqtlarida ishlash boshladi.

Rivojlangan har bir jamiyatda og'riqli nuqtalarning bo'lishi bu tabiiy jarayon. Agarda unga o'z vaqtida malham berilmas ekan, aholi farovonligi uchun kurashilmas ekan, u kun kelib, gazak olib, tuzalib bo'lmay bir dardga aylanadi. Inson manfaatlarini har narsadan ustun qo'yib, uning baxti uchun ish boshlagan ijtimoiy xodim farovon jamiyatning Vatani himoyachilari kabi chinakam posboni sanaladi.

Mayna HASANOVA,
jurnalist

ANDISHASIZLIK

Qishning so'nggi oyida haj safariga ketgan yurtdoshlarimiz bilan ko'rishmoqlik nasib qildi. Bir umr orzu qilib, niyatiga yetkazganga shukrona qilib kelganlar "hoji aka", "hoji ona" deb qilinayotgan murojaatdan boshlari osmonga yetardi. Bizning o'ng va chap tarafimizdagi qo'shnilar ham muborak safarga borish baxtiga muayassar bo'ldilar. Ularning qaytishi barcha qarindosh-urug' va qo'ni-qo'shnilar uchun bayram bo'lib ketdi. Axir bu kunga yetganlar bor, yetmaganlar bor.

Ikki qo'shni bir vaqtda kelishgani uchun yarim qo'shni o'ng tomondagisidikiga, qolganlari chap tomondagisidikiga kirishdi. Uy tumonat odam, katta qozon qaynab turibdi. Bir qarashda to'yni eslatadi. Dasturxonni piyola qo'yishga joy yo'q. Kelganlarning hammasiga tasbeh, do'ppi kabilari sovg'a sifatida tarqatib chiqildi. O'vqatdan so'ng hojilardan hol-ahvol so'rashgach, andishali mehmonlar keti uzilmayotgan odamlarga joy bo'shatish uchun fотиha qilishdi. Ammo hozir andisha ham kamnamo shekilli, ayrimlar to'kin dasturxonni tashlab ketgisi kelmaydi chog'i, orada 4-5 marta odamlar kelib-ketsa-da, hech turay demaydi. Shunda shaddodroq qo'shnilaridan biri tagdor qilib so'raydi:

– Chap tarafdagilarnikiga ham chiqamizmi yoki kechgacha shu yerda o'tiraverasizlarmi?

Bu gapdan keyin ayollar noiloj, istaristamay qo'zg'alishga majbur bo'ldi. Endi bu qo'shnikiga "hujum" boshlanadi. Suyuq o'vqat tanovul qilgan ayollar endi sovg'a kutishyapti. Biroq bu yerdagi hoji negadir hech narsa bermadi-ya. O'tirib-o'tirib hafsalasi pir bo'lgan ayollar bazo'r o'milaridan turdilar.

"Eyy, naryoqda maza qilib o'tirgandik, bu yerga bekor chiqibmiz", – deydi birinchisi. "Nimasini aytasiz, u yerda uch-to'rt xil narsa berishgandi, bular hech narsa bermadi-ya". Gap-so'zlar shu bilan tugamaydi. Hamma o'zi uchun muhim deb bilgan narsaga e'tibor qaratadi va shu haqda gapiradi.

Hojilar esa... endi mehmon kutish uchun yana bir haj xarajatini qilishga majburlar. Axir o'zbekchilik-da, kelgan odamning oldiga bir piyola choy bilan o'vqat qo'ymasang, uyat bo'ladi. Shuning uchun ham ikki qo'shnikida uch kunda necha qoramol so'yilib, necha qozon sho'rva pishmadi. Bu yog'ini so'rasangiz, kelganlarni quruq qo'l bilan qaytarib bo'lmaydi. Har biriga joynamoz, mushkanbar kabi narsalar berish kerak. Ularni yaqinroqdagi bozordan avvaldan keltirib qo'yasiz. Olgan odamlar esa uni hajdan kelgan, deb xursand bo'lib yuraveradilar. Biroq xursand bo'lmaydiganlar ham bor ekan. Mana, uning hasrati:

– Eyy, hajdan kelibdi, bir ko'rib qo'yay debman-da. Kelganimga pushaymon yedim. Odam ko'p ekan. Ko'pchilikning ichida yaqindagina olgan kalishimni yo'qotib qo'ydim. Hali yangi edi, shuncha qidirtirsam ham topilmadi. Buyam yetmagandek, uyya borib, bergan atirini ochib ko'rsam, ichida yo'q ekan.

Yoshi bir joyga borib qolgan keksa ayolning nolishi kishini hushyor tortishga majbur qiladi. Men ayolning kalishi yo'qolganiga ham, atirining shishasi bo'sh ekaniga ham achinmadim. Unda va u toifadagilarda uyat yo'qolib borayotganiga achindim. Kelganlardan faqat farzandlari va yaqin qarindoshlariga, yaxshi borib keldingizmi, u yerdan eson-omon qaytib kelganingizga shukur, deyayotgandi. Qolganlarning esa buni so'rashga vaqtlari yetmay, borish-kelish xarajati va sovg'alarning muhokamasi bilan kifoyalandilar.

YAQINDAGI UZOQ ODAMLAR

Tushimga buvim kiribdilar. Nimagadir mendan xafaliklarini sezdim. "Adangizga yaxshi qaranglar, bolam", dedilar-u, g'oyib bo'ldilar. Vafot etgan buvimning bu gaplaridan sergak tortdim: oxirgi marta otam bilan qachon tuzukroq gaplashdim? Qachon ko'ylaklarini yuvib bergandim-a? Ba'zan bolam-chaqam, ro'zg'or, deb tinmay ishlayotgan otamning qachon kelib, qachon ketganlarini ham bilmay qolaman.

Ha, buvim tushda bo'lsa ham muhim narsadan ogohlantirdilar. Menga yaqinlarim kerak. Men faqat ular betob bo'lib qolganda emas, balki har kuni ularning ahvoli bilan qiziqishim lozim. Shu o'rinda mavzuga doir dugonamning hikoyasi yodimga tushdi.

Razm solum, hammamiz o'z ishimizdan, o'y-xayollarimizdan ortmay qolganmiz. Ro'zg'or atalmish zil-zambil aravani tortish uchun qayoqqadir yuguramiz, shoshamiz. Otaning o'g'il bilan, onaning qiz bilan gaplashishga vaqti yo'q. Kuzatsam, onam ishdan kelib, uyqusiragancha uy yumushlarini buyurishdan, otam o'qishlarini yaxshimi, deb so'rashdan nariga o'tmaydi. "Ha, bularni boqyapman, ertangi tushlik pulini berdim-ku", balki shunday o'ylar otam. "Qizimning sarposiga qizil duxoba oldim, sarig'iga oyligim yetarmikan", bu onamning ko'ngillaridan o'tgani. To'g'ri, ota-onam ishlashlari kerak. Ammo bizni uzoqlashtirgani uchun ba'zan ishni ham yomon ko'rib ketaman.

Kech kirib, dasturxon atrofiga yig'ilganda ham mavzu bozordagi narx-navo va kimningdir oilaviy qo'ydi-chiqdisi haqida boradi. Bo'g'il ketaman, yetti yot begonani soatlab muhokama qilamiz. Bizga aloqasi yo'q ishlarga aralashib yuramiz. Go'yoki yonginamizda o'tirganlar bilan aytib sirlashadigan, maslahatlashadigan gapimiz yo'qdek. Ba'zan shunchaki

tanishimizning ishini bitirish uchun ham vaqt ajratamiz.

Asli bir-biriga juda yaqin insonlarning ko'ngli yaqin emasligiga sabab nima? Gohi onalarning bolam aytganimni qilmaydi, deb noliganini eshitib qolamiz. Qiziq, nega farzand onasining gapiga quloq solmaydi? Ayrim oilalarda ota bilan farzand o'rtasida ko'rinmas "jarlik" paydo bo'ladi. Bir qarashda hammasi ko'ngildagidek tuyilsa-da, ammo bolalarning ota-onadan uzoqlashishiga, ba'zan ota-onalarning o'zi sababchi bo'lib qoladi. Fikrimni izohlashga harakat qilaman. Ayol kishi uyda kam bo'ladigan xonadonda janjal ko'p bo'ladi. Hozir esa davr ayolning ishlashini ham taqozo qilyapti. Biroq ota-onalik mas'uliyati faqat bolani boqish bilan o'lchanganda u juda yengil bo'lardi. Bola uchun tarbiyadan muhimroq libos, ilmdan afzalroq boylik bo'lmas kerak. Ko'p kuzatganman, o'ziga to'q oila farzandlari biroz bemehrroq bo'lib o'sadi. Ularga ota-onasi istagan narsasini muhayyo qilib bersa ham nimadandir norozi bo'laveradilar. O'rtaoh oilada garchi farzandlar soni ko'p, birinikini biri kiyib ulg'aysa ham jigar-jon bo'lib voyaga yetadilar. Demak, bolani hech nimadan kam qilmay yoki o'tamiyona boqish uning tarbiyasini belgilamaydi.

Nazarimda, farzand va ona o'rtasida ko'rinmas jarlik paydo bo'lishining ham bir qancha sabablari bor. Bugungi kunda ko'pchilik talabaligida turmushga chiqqan qizlar farzandli bo'lgach, uni boqish uchun enaga yollaydi. Xo'p, talabaning-ku o'qishi bor, ammo bola boqishga ham jismonan, ham ruhan tayyor bo'la turib, enaga yollashni oqlash qiyin. Ehtimol, enagalarning tajribasi ko'p bo'lishi mumkin, biroq bola uchun u haqiqiy ma'noda ona o'mini bosa olarmikan? Axir xalqimiz bejizga tug'gan ona emas, boqqan ona deb aytmagan. Qolaversa, eng nozik paytidan to oyoqqa turguncha boqib, tarbiyalagan enaga bolaga yaqin bo'lib qoladi. O'z onasidan kerak paytida g'amxo'rlik ko'rmagan bola kelajakda volidasiga mehribon bo'ladi, deb kim kafolat bera oladi?

“PARIJ — 2024” AYNI

Fransiya poytaxti Parij shahrida start olgan XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlari bahslari tobora qizg'in tus olmoqda. Dunyoning eng nufuzli musobaqasida yurtimiz sportchilari, jumladan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham faollik ko'rsatyapti.

To'rt yillikning bu galgi bahslarida 206 davlatning 10 ming 500 nafardan ziyod sportchisi qatnashib, 32 ta sport turi bo'yicha g'oliblik uchun o'zaro kurash olib boryapti. Nufuzli musobaqada O'zbekiston sharafini o'z tarixida ilk bor 90 nafar sportchi himoya qilmoqda. Ular XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarining 19 sport turi bo'yicha bahslarida ishtirok etyapti.

Shuni alohida ta'kidlash joiz, sportchilarimiz olimpiya yo'llanmasini qo'lga kiritish uchun juda uzoq, murakkab va og'ir yo'lni bosib o'tishdi. Ular har jihatdan mahoratli safida bo'lishga munosibligini xalqaro musobaqalardagi ishtiroki orqali isbotladi, O'zbekiston nomini ulug'ladi. Shunday ekan bu sportchilarning “Parij – 2024” yozgi Olimpiada o'yinlarida qatnashishining o'zi bir sharaf.

Atletlarimizning 22 nafari Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillaridir va ular XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarining 9 sport turi bo'yicha bahslarida qatnashib, medallar uchun kurash olib boryapti.

TANTANALI OCHILISH MAROSIMI

Yozgi Olimpiada o'yinlarining tantanali ochilish marosimi tarixda ilk bor stadionda emas, daryoda bo'lib o'tdi. Parij shahridagi Sena daryosida tashkil etilgan XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarining tantanali ochilish marosimida ishtirokchi davlatlar maxsus qayiqlarda daryo bo'ylab 6 kilometrlik masofani suzib o'tdi. Parad marshruti Parij tarixi va me'morchiligi bo'ylab vizual sayohat ko'rinishini oldi. 10 ming nafardan ziyod sportchini olib ketayotgan 200 ga yaqin o'ziga xos dizayn bilan jihozlangan qayiq Sena daryosida harakatlandi. Qirg'oq bo'ylab turli sahna ko'rinishlari namoyish etilishi marosimga o'zgacha ruh bag'ishladi.

Paradda O'zbekiston bayrog'ini baland tutgan bokschi Abdumalik Xalokov va MVSM qilichbozi Zaynab Daybekova boshchiligidagi dunyo tan olgan sportchilarimiz hamda delegatsiyamiz a'zolari bilan to'lgan maxsus qayiq ham ko'rinish berishi Vatanimiz sport muxlislariga katta quvonch baxsh etdi, bir olam g'urur bag'ishladi. Teleekran qarshisida kuzatayotgan millionlab sport muxlislarining ham faxr-iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini jo'sh urdirdi.

Sena bo'ylab yo'l olgan kemalar Fransiya ramzi bo'lgan Eyfel minorasi qarshisidagi Trokadero ga yetib bordi. U yerda rasmiy tadbirlar o'tkazildi va “Parij – 2024” yozgi Olimpiada o'yinlarning ochilishi rasman e'lon qilindi. Marosim yakunida futbolchi Zayniddin Zidan va tennischi Rafael Nadal kabi mashhur sportchilar guruhi Luvr binosi tashqarisida o'rnatilgan qozonga Olimpiada mash'alasini olib keldi. Qozon ustiga o'rnatilgan havo shari mash'ala bilan birgalikda osmonga ko'tarildi. Shu tariqa, XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlari boshlandi.

DZYUDO

Asosiy negizi Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillaridan iborat bo'lgan O'zbekiston dzyudo terma jamoasi bundan uch yil muqaddam kunchiqar yurtda o'tkazilgan “Tokio – 2020” yozgi Olimpiada o'yinlariga 10 nafar sportchi bilan borgan va 11 ta sovrinli o'rin uchun kurashgan, yakunda MVSM vakili Davlat Bobonov -90 kg vaznda bronza medalni qo'lga kiritgan edi. Parijda o'tayotgan bu galgi Olimpiada o'yinlariga dzyudochilarimiz yanada kengroq tarkibda, ya'ni 7 nafar o'g'il, 4 nafar qiz sportchi bilan bordi. Erishilgan natijalar esa yanada yuqoriroq bo'ldi.

Avvalo shuni ta'kidlash joiz, Olimpiada o'yinlari tarixida yurtimiz dzyudochilari hech qachon 12 ta sovrinli o'rin uchun kurashga kirishmagandi. Boz ustiga bu galgi Olimpiada o'yinlari reytingida yurtimizning ko'plab dzyudochilari o'z vaznlarida kuchlilar qatorida qayd etildi va ba'zi hollarda bitta vaznda o'zbekistonlik 3-4 nafar sportchi “Parij – 2024” reytingiga kiritildi. Biroq Xalqaro dzyudo federatsiyasi ishlab chiqqan maxsus dasturga muvofiq, Olimpiada o'yinlarida har bir davlatdan faqat bir nafardan dzyudochi ishtirok etish huquqiga ega. Shu bois “Parij – 2024”ga 11 nafar dzyudochimiz bordi va ular XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarining 12 ta sovrinli o'rinlari uchun kurashga kirishdi.

“Parij – 2024” tatamilarida O'zbekiston dzyudosi tarixiga oid yana bir necha yo'nalishda yangi cho'qqilar zabt etildi. Uni MVSM vakili leytenant Diyora Keldiyorova boshlab berdi.

Barcha raqiblarini mag'lub etgan Diyora O'zbekiston sporti va dzyudosi tarixidan Olimpiadaning oltin medalini qo'lga kiritgan ilk ayol sportchi

XXXIII YOZGI OLIMPIADA O'YINLARIDA QATNASHAYOTGAN MUDOFAA VAZIRLIGI OLIY SPORT NATIJALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZI VAKILLARI

T/r	F.I.Sh.	Sport turi
1	RASHITOV Ulug'bek Ismatullayevich	Taekvondo WT
2	OSIPOVA Svetlana Valeryevna	Taekvondo WT
3	JAYSUNOV Jasurbek Rustamovich	Taekvondo WT
4	RAFALOVICH Nikita Igorevich	Taekvondo WT
5	SOBIRJONOVA Ozoda	Taekvondo WT
6	DAVLATOV Shoxrux Saydullo o'g'li	Yengil atletika
7	DAVRONOVA Sharifa Jamshidovna	Yengil atletika
8	ANVAROV Anvar Abidovich	Yengil atletika
9	SADULLAYEVA Safina Erkinovna	Yengil atletika
10	MO'YDINXO'JAYEV Asadxo'ja	Boks
11	XABIBULLAYEV To'rabek	Boks
12	TURDIBEKOVA Sitora Shavkat qizi	Boks
13	DAYBEKOVA Zaynab Kazakbekovna	Qilichbozlik
14	MISHURINA Margarita	Velosport
15	ADASHBAYEVA Regina Nodir qizi	Og'ir atletika
16	ZOKIROVA Nilufar Obidjon qizi	Baydarka va kanoeda eshkak eshish
17	MAXKAMOV Shaxriyor Yodgor o'g'li	Baydarka va kanoeda eshkak eshish
18	PRAKATEN Anna Vitalyevna	Akademik eshkak eshish
19	NURMATOV Shaxzod Sunnatillo o'g'li	Akademik eshkak eshish
20	QURBONOVA Xalima Xasan qizi	Dzyudo
21	KELDIYOROVA Diyora Baxtiyor qizi	Dzyudo
22	MATNIYAZOVA Gulnoza Jumaboy qizi	Dzyudo



AVJ PALLAGA KO'TARILDI



sifatida joy oldi. Bu haqda gazetamizning o'tgan sonida batafsil to'xtalgandik.

MVSM vakilining "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlaridagi muvaffaqiyatini terma jamoamiz a'zosi Muzaffarbek To'raboyev davom ettirdi. Shu yili bahorda Gonkongda o'tkazilgan Osiyo chempionatida g'oliblikka erishgan dzyudochimiz Parijda ham Olimp shohsupasiga ko'tarildi. -100 kg vazn toifasidagi dzyudochimiz 3-o'rin uchun kechgan bahsda ispaniyalik nomdor polvon Nikoloz Sherazadishvilini mag'lubiyatga uchratib, bronza medalni qo'lga kiritdi. Shu tariqa, O'zbekiston delegatsiyasi "Parij - 2024"da ikkinchi medalga sazovor bo'ldi.

Dzyudochilarimiz XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasi g'aznasini yana bir bronza medal bilan boyitdi. Mazkur medalga terma jamoamiz a'zosi Alisher Yusupov mualliflik qildi. Eng og'ir (+100 kg) vazn toifasidagi polvonimiz bronza medal uchun kechgan bellashuvda yaponiyalik Tatsuro Saitoni mag'lub etdi.

"Parij - 2024"ning aralash jamoaviy bahslarini muvaffaqiyatli boshlagan dzyudochilarimiz ham medalga yaqin bordi. Biroq o'tish bosqichida jamoamiz koreyaliklarga 4:2 hisobida yutqazib qo'ydi.

MVSMning 30 yoshli dzyudochisi Gulnoza Matniyazova "Parij - 2024"dagi ishtirokidan so'ng professional sportchilik faoliyatini rasman yakunlaganini e'lon qildi. Mahoratli dzyudochimiz "Rio - 2016" va "Tokio - 2020" yozgi Olimpiya o'yinlari, 3 ta Osiyo o'yinlari, jahon chempionatlari, "Katta dubulg'a" va Gran-pri musobaqalarida yurtimiz sport sharafiga munosib himoya qilgan. Uning xizmatlari davlatimiz tomonidan e'tirof etilib, 2021-yil "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan. Gulnoza sportchilik faoliyatini ham yuqori notada yakunladi. U "Parij - 2024"ning aralash jamoaviy dasturida 3 ta terma jamoa vakillariga qarshi bahsda qatnashdi va barchasida g'alaba qozondi.

BOKS

Parij shahrida o'tayotgan XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlari orqali mamlakatimiz boksi tarixida ham yangi sahifalar ochilishi kutilmoqda. Ulardan biri Hasanboy Do'smatovga tegishli bo'lishi mumkin. Chunki "Rio - 2016"da oltin medalni qo'lga kiritgan charm qo'lqop ustamiz faoliyatida ikkinchi bor Olimpiada finaliga yo'llanma oldi. -51 kg vaznli bokschimiz chorak finalda qozog'istonlik Saken Bibossinovga qarshi ringga chiqdi va ishonchli tarzda zafar quchdi. Final yo'llanmasi uchun jangda esa Kabo-Verde vakili Daniel David Varela de Pinadan ustun keldi. Endi Hasanboy 9-avgust kuni fransiyalik Billal Bennamaga qarshi Olimpiada chempionligi uchun ringga ko'tariladi. Do'smatov bu jangda ham g'alaba qozonib, "Parij - 2024"ning oltin medalini qo'lga kiritisa, mamlakatimiz boksi tarixida yangi sahifa ochadi.

O'tgan galgi yozgi Olimpiya o'yinlari chempioni Bahodir Jalolovda ham shunday imkoniyat mavjud. Eng og'ir vazn toifasi bo'yicha bahslarda ishtirok etayotgan bokschimiz chorak finalda avstraliyalik Teremoanani, yarim finalda germaniyalik Nelvi Tiafakni mag'lub etib, ketma-ket ikkinchi bor Olimpiada finalchisiga aylandi!

MVSM vakili

Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev ham O'zbekiston delegatsiyasi uchun joriy Olimpiya o'yinlarining galdagi medalini taqdim etadigan bo'ldi. -71 kg vazn toifasida jahon chempioni hisoblangan bokschimiz 1/4 finalda daniyalik Nikolay Terteryandan, 1/2 finalda AQSh vakili Omari Jonsdan ustun kelib, finalga yo'l oldi.

Bokschimiz Lazizbek Mullajonov (-92 kg) esa chorak finalda 2021-yilgi jahon chempionati finalchisi braziliyalik Keno Machadoga qarshi jang qildi va chiroyli g'alabaga erishdi. Shundan so'ng u tojikistonlik Davlat Boltayevga qarshi ringga ko'tarildi. Keskin va murosasiz o'tgan ushbu yarim final uchrashuvida ham charm qo'lqop ustamiz zafar quchdi. Endi Lazizbek "Parij - 2024" Olimpiya o'yinlarining oltin medali uchun jangni 10-avgust kuni ozarbayjonlik Loren Alfonso Domingesga qarshi o'tkazadi.

Osiyo o'yinlari g'olibi, qit'a va jahon chempioni Abdumalik Xalokov (-57 kg) "Parij - 2024"dagi ikkinchi jangini ispaniyalik Xose Brotonos Kyuilesiga qarshi o'tkazib, g'alaba qozondi va yarim finalga yo'l oldi. Shu o'rinda qayd etish joiz, Olimpiadada yarim finalga yo'l olgan bokschilar o'zlari uchun kamida bronza medalini kafolatlaydi.

SPORT KURASHLARI

Yunon-rum kurashchimiz Aram Vardanyan (-77 kg) "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari chorak finalida jahon chempionatining bronza medalini sohibi yaponiyalik Nao Kusakaga qarshi gilamga chiqdi va imkoniyatni boy berdi. Biroq uning raqibi Kusaka finalga qadar yetib borgani bois hamyurtimiz bronza medal uchun kurashni davom ettiradigan bo'ldi. Xuddi shunday imkoniyat yunon-rum kurashchimiz Rustam Assakalovda (-97 kg) ham vujudga keldi. Rustam chorak finalda nomdor sportchi - "Rio - 2016" yozgi Olimpiya o'yinlari chempioni, jahon chempionatlarining 4 karra g'olibi armanistonlik Artur Aleksanyanga to'qnash kelib, mag'lub bo'lgandi. Rustamning baxtiga Artur ham finalchiga aylandi.



Shundan so'ng har ikki polvonimiz bronza medal uchun o'tish bosqich bellashuvlarida qatnashdi. Vardanyan jazoirlik Abdelkrim Oukalini, Assakalov Koreya Respublikasi vakili Seong Jun Kimni katta ustunlik bilan mag'lubiyatga uchratishga erishdi. Muxlislar yunon-rum kurashchilarimizdan ham "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari medalini kutib boshlashdi. Lekin... bronza medal uchun kechgan hal qiluvchi so'nggi bellashuv ikki polvonimiz uchun ham alamli yakunlandi, ikkisi ham raqiblariga imkoniyatni boy berib qo'ydi.

YENGIL ATLETIKA

Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolarining XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlaridagi ishtirokini MVSM vakili Safina Sadullayeva boshlab berdi. Safina dastlabki ikki urinishdoyoq 1.83 va 1.88 metr balandliklarni zabt eta oldi. Keyingi urinishlari hamda final dasturidagi ishtiroklarida esa 1.91 va 1.95 metr balandliklardan oshib tushib, mavsumdagi eng yaxshi natijasini ko'rsatdi. Shu tariqa MVSM vakili ketma-ket ikkinchi bor Olimpiya o'yinlarida kuchli yettilikdan joy oldi.

Uzunlikka sakrash dasturida qatnashgan MVSM vakili Anvar Anvarov esa saralash bosqichda 7.77 metr natija qayd etdi. Afsuski, bu ko'rsatkich hamyurtimizga final bosqich yo'llanmasi uchun kamlik qildi.

SARHISOB

XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarining ortda qolgan o'n birinchi kungi sarhisobiga ko'ra, 76 ta davlat vakillari to'rt yillik kompleks musobaqalarning sovrindorlari qatoridan joy olishga muvaffaq bo'lgan. Yetakchilar qatorida hamon AQSh, Xitoy, Avstraliya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya jamoalari bormoqda. AQSh sportchilari hozircha 24 ta oltin, 31 ta kumush, 31 ta bronza, jami 86 ta medal bilan 1-o'rinda bormoqda. Okean orti vakillaridan keyingi pog'onalardan joy olgan Xitoy olimpiyachilari 22 ta oltin, 21 ta kumush, 16 ta bronza, jami 53 ta medal bilan 2-o'rindan, Avstraliya jamoasi 14 ta oltin, 12 ta kumush, 9 ta bronza bilan 3-o'rindan joy olgan. Ularni ta'qib etayotgan Fransiya olimpiyachilari hisobida 13 ta oltin, 16 ta kumush va 19 ta bronza medal mavjud.

Mamlakatimiz olimpiyachilari bitta oltin va 2 ta bronza medalga ega bo'lgan holda 206 ta milliy jamoalar orasida 38-o'rinda bormoqda. Voqealar rivojidan oldinga o'tgan holda shuni aytish lozimki, bokschilarimizda 5 ta medalga egalik qilish imkoniyati mavjud. Shunday ekan, O'zbekiston olimpiyachilarining umumjamoadagi joylashuvi yaqin 3-4 kun oralig'ida yanada yuksalishi shubhasiz. Bundan tashqari, taekvondo, erkin kurash, og'ir atletika kabi sport turlarida ham ko'zlangan natijalar qayd etilsa, "Rio - 2016" yozgi Olimpiya o'yinlaridagi erishilgan ko'rsatkich ham yangilanishi tayin.

BIRNIKI MINGGA...

Ijtimoiy tarmoqlarda axborotlar shu qadar ko'pki, ularni saralab, tahlillab qabul qilishning o'zi bo'lmaydi. Bular orasida inson sha'nini yerga uradigan, oila qadriyatlarini shubha ostiga qoldiradigan xabarlar uchraydiki, ularni taqdim qilganda hushyor bo'lish lozim. Birinchi bo'lishga intilish, ko'proq o'quvchi jalb etish harakati kuchaygan bir davrda o'quvchi ruhiyati bilan hisoblashish, o'quvchi ruhiyatini avaylash tobora noyoblashib bormoqda.

Keyingi paytlarda "keliniga shilqimlik qilgan qaynота"lar haqidagi xabarlar ko'zim tushdi. Qarg'ish, la'natlarga to'la izohlarga to'xtalish niyatim yo'q. Ixtiyorsiz oilangiz – o'z otangiz, aka-ukalaringiz, qaynotangiz haqida o'ylaysiz. Hatto o'ylaringizda ham ularni asraysiz. Elchilik degan gap ham bor. Shu elchilikda nimalarni eshitmaysiz. Bunday qabih ishga haddi sig'gan odamlarni eshitib, lol qolganmiz, yoqamizni tishlaganmiz. Shunday bo'lsa-da, ko'p kuttirmay asl haqiqatlar yuzaga chiqqan: uy-joyga egalik, alohida ko'chib chiqish, qariyaning osh-suviga qarashdan qochish... Tuhmatlar ham javobsiz qolmagan, juda og'ir badal to'langan holatlarni ham ko'rdik. Birniki mingga, mingniki tumanga uribdi, degan ota so'zim bor. Qoni buzuqlar borligini inkor etmaymiz. Ammo o'zbekning oliyanob otalari, erkaklari ham ko'p.



QAYNOTA

Katta xonadon. Qizlar palaxmon toshidek otildi-ketdi. O'g'illar ham navbati bilan o'z uylarini qura boshladi. Navbat to'rtinchi o'g'ilniki edi. Ammo... Oila qurganiga yetti yildan oshsa-da, hali farzandli bo'lmadi. Kelin qarindoshning bolasi edi. Kattalarning ikki o'rtani bog'laydigan so'qmoqlar yo'qolib ketmasin, degan ezgu niyatlari bilan bunyod bo'lgan oila. Osongina buzilib ketishi mumkin emas.

Umidvorlikda yillar kechdi. Kunlarning birida... Xushxabar barchani ota uyiga yig'di. Tillariga chiqarmagan bo'lsalar-da, hamma shu kunni kutayotgan ekan: akalar, opa-singillar, ota-onalari. Bu tabiiy edi. Ular katta bir oila, quvonch-tashvishlari o'rtada. Kelinning ham ko'zlarini porlab, yelib-yugurib xizmatda bo'ldi. U xuddi bu xonadonga ilk kelgan kunlariga qaytgandek baxtiyor edi.

– Aziza qizim, – dedi qaynotasi hammalari dasturxon atrofiga jamuljam bo'lganida, keliniga qarab, – sen chaqalog'ingni qo'lingga olib, ostona hatlab ichkariga qadam qo'yishing bilan boqib yurgan qashqa ho'kizimni so'yib, elga to'y qilib beraman. Xoh qiz bo'lsin, xoh o'g'il bo'lsin, jonidan sadqa.

Azizaning dog' bosgan yuzlari oftobdek yorishdi. Bu yorug'lik har ko'ngilga kirib bordi.

Nihoyat, o'sha kutilgan kun keldi. Tongda ko'zi yoridi. Afsus. Bola o'lik tug'ilgan edi. Qaynotasiga bu xabar boshiga gurzi tushgandek yetib bordi. Eshitgan joyida o'tirib qoldi. O'ziga kelib, katta o'g'lini chaqirtirdi. Unga ham xabar yetgan shekilli, mashqi pastroq kirib keldi.

– Jabbor, – dedi qariya salom-alikdan so'ng, – shu

qashqa ho'kizni ko'zimdan yo'qot. Bog'langan qozig'ini olib, ko'zdan panaga qo'y. O'rniga o'tin taxlab tashla. Hoziroq qil, shu ishni! Kelining qay holda keladi hali, Xudo biladi... Ko'zi tushganida dardi yangilanavermasin.

Katta o'g'il otasiga bir so'z demay ishga kirishdi.

Azizaning o'ziga kelishi og'ir kechdi. Olti oylar chamasi vaqt o'tib, yangilik borligini bilishdi. Endi hamma jimgina kutishni ma'qul topdi. Biroq... ikkinchisi ham o'lik tug'ildi. Azizaning sharpasi qolgan edi, go'yo. Hovliga chiqqanida, nima qilayotganini anglamay bir joyda turib qoladigan keliniga qarab, qariyaning yuragi ezilardi.

Farzand ko'rish dardi bilan yonayotgan ayolning ko'nglidagilari o'ziga va Ollohga ayon. U uchinchi bor homilador bo'ldi. Bu juda og'ir va zo'r kurash ediki, ayol ojiz qoldi. Uchinchi o'lik tug'ilgan go'dak uni yiqitdi. Doim gavjum, sershovqin xonadon kelinning dardi bilan qorong'ilik ichida qoldi. Hayot davom etar, yolg'iz Aziza uchun vaqt o'z anglamini yo'qotgan edi.

Bir-birini quvlab kunlar, oylar o'tdi. Inson umid bilan tirik. So'ng nafasiga qadar uni umid tark etmaydi. Aziza ham sekinlik bilan bo'lsa-da, o'ziga keldi. Yana homiladorlik, umid, xavotir, yana umid, bezovtalik... Shunday kunlarning birida onasi uni yo'qlab keldi. Tashqarida, ishqom ostidagi so'rida allamahalgacha qudalar gurunglashib o'tirdi. Qariya ekinlarga suv tarashim kerak deb qo'zg'aldi. So'rida ayollar o'zlarini qoldi.

Qariya ishlarini bitirib bo'lganida atrofda tun sukunati cho'kkan, to'lin oy kimnidir tinglagandek uy tepasida turib qolgandi. Negadir ayollar hali

ham bedor edi. Ularni bezovta qilmaslik uchun ayvon tomonga o'tdi. Shu payt kelini Azizaning hayajonli ovozi uni joyida to'xtatdi:

– Ena, agar bu gal ham shunday, qo'llarim bo'm-bo'sh qolsam, o'laman, aniq o'laman, ortiq bunday ayriliqni ko'tara olmayman!..

– Yaxshi niyat qil, qizim, yaxshi niyatda hikmat ko'p!

– Enajon, bolam tug'ilsin-da o'lsin, deb niyat qilmaganman-ku, o'n to'rt yilki, bola dardi, bola ko'rish orzusi bilan yashayman. Qo'rqayman, yana shunday bo'lsa, o'lmay qolsam ham olib borib, meni ham o'sha go'daklarim yoniga ko'mib kelingerlar, baribir ko'tara olmayman!..

Qariya kelining gaplaridan keyin zilday bo'lib qolgan oyoqlarini arang ko'tarib ayvonga chiqdi. O'rniga og'ir cho'karkan, pichirladi: "Olloh, kelinimni noumid qilma..."

Xavotir, umidlar qorishig'ida kutilgan o'sha kun keldi. E, vohhh!.. Ayol ko'zlarini yuq holda shifokorlarning tashvishli ovozlari quloq tutdi: "Qizaloq ekan... nafas olmayapti", "Orqasiga shapatila!" Aziza ko'zlarini ochdi, doya qo'lidagi sas chiqarmayotgan chaqaloqqa qaradi, "Ohhh!" degandek chuqur xo'rsinib, ko'zlarini horg'in yumdi. "Onaning qon bosimi tushib ketyapti..."

Ayol komaga tushib qoldi. Shifokorlar ham tayinli gap aytmasdi. Noma'lumlik hammani ezib tashladi. Qariya jim kutib turolmadi. Bosh shifokor qabuliga navbat ham kutmasdan jahd bilan kirdi-yu, bir og'iz "Qizimmm!" deb cho'kkalab qoldi. Ko'z yoshlari oppoq soqolini ho'l qildi. Bosh shifokor shoshib turib, sovuq sur tutdi. Tirsagidan tutib, turishiga yordamlashdi, yumshoq o'rindiqqa o'tirg'izdi, yoniga o'tirib, o'ziga kelib olishini kutdi.

– Qizim, – dedi bosh shifokorning ko'zlariga termilib, titroq ovoza, – kasalxonangizda kelinim jon beryapti... Tirik qolishi sizning qo'lingizda.

– Qo'limizdan kelgan ishni qilamiz, umidsiz bo'lmang, keliningizning ism-familiyasini ayting.

– Aziza, Aziza Burhonova, – dedi qariya umid bilan termilib.

Bosh shifokor stoldagi knopkani bosib, kimgadir Azizaning kasallik tarixi varaqasini zudlik bilan keltirishini tayinladi. Bunga qadar qariya ham ancha o'ziga kelib qoldi. Vaziyatni tushuntirdi.

– Kelinimni hayotga qaytaradigan yagona malham, bola, – dedi qariya yuragi yonib, –yoshlik qilib, bolasidan kechganlar bordir, iltimos, o'shanday voz kechilgan go'dak bo'lsa, kelinimga bering, u hali yosh, yashashi kerak. Ishonaman, u bebaho ona bo'ladi!

Ayol boyagina unga keltirilgan kasallik tarixi bilan tanishar ekan, o'ylanib qoldi. Qog'ozdan bosh ko'tarib, qariyaga dedi:

– Otaxon, bugun tongda bir qizaloq tug'ilgan...

U gapini tugatmayoq qariya uning qo'llarini mahkam tutib oldi va jon holatda yolvordidi:

– Jon qizim, boshqa hech narsa demang, mayli xasta tug'ilgan bo'lsa ham, uni kelinimga bering, hoziroq, hoziroq borib chaqaloqni kelinimning kuygan ko'ksiga qo'yishsin, bolang tirik, deb aytishsin, Shahnoza tirik, deb aytishsin. U qizining ismini Shahnoza ham'yomoqchi edi, shu ismi hammaniizga sevdirgan. Meni aytdi deysiz, ko'rasiz, u ko'zlarini ochadi, qizcha uni hayotga qaytaradi. Faqat tezroq!..

*** **

Oradan yillar kechdi. Aziza keyinchalik ikki o'g'il tug'di. Opa-ukalar bir-birlariga mehrli bo'lib ulg'ayishdi. Bugun Shahnozaning to'yi ekan. Bobosiga bu kunni ko'rish nasib etmadi. Qariya Shahnozaning dunyoga kelish sirini o'zi bilan qabrga olib ketmoqchi edi. Ammo o'g'il ichiga sig'dira olmadi. Bir kuni ichib keldi va xotiniga bu qizcha ularniki emasligini aytdi.

– Bu mening qizim, Shahnoza mening qizim! – dedi Aziza keskin ohangda, qizaloqni mahkam bag'riga bosib. – Agar ko'nglingiz to'lmayotgan bo'lsa, bolamni olib, hoziroq ketaman!

Bu da'vodan qaynonasi hang-mang bo'lib qoldi. Qariya g'azabini zo'rg'a jilovladi. Oppoq qoshlari tagidan ko'zini o'qdek qilib o'g'liga tikdi va dona-dona qilib dedi:

– Kelin hech qayerga ketmaydi. Bu uydan kimdir ketishi kerak bo'lsa, sen ketasan. Shunchaki ketmaysan, qaytib bu ostonaga qadam bosmaysan! Nobakor o'g'il, sen bilan ertaga tongda gaplashamiz.

Ota-o'g'ilning tonggi suhbatini pinhona kechdi. Shundan keyin o'g'li qaytib ichkilikni og'ziga olmadi. Shahnozani suyub-erkalab voyaga yetkazdi.

Bu sir... U endi sir emas. Oliyjanob bir otaning fidokorligi deya og'izdan og'izga ko'chib yuradi. Sir ochilib, tuyg'ular o'zgardimi? Yo'q. Shahnoza oilaning to'ng'ich farzandi, ikki azamat ukaning opasi, Azizaning joni, otasining ishongan bog'i bo'lib qolaverdi.

SURXONDARYODA KEMAMODEL SPORTCHILARI BELLASHDI

Termiz shahrida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan sportning kemamodel turi bo'yicha O'zbekiston chempionati o'tkazildi.



Musobaqada Toshkent shahri va viloyatlardan tashrif buyurgan 60 nafarga yaqin sportchi o'zlari tomonidan tayyorlangan kema modellari bilan ishtirok etdi.

Sport hakamlari tomonidan ushbu modellar sinchiklab tekshirilib, har birining detallari qurilishi va joylashuviga baho berildi.

Musobaqaning ikkinchi kunida sportchilar o'zlariga birlashtirilgan kema modellari suvda harakatlantirgan holda bellashdi.

Murosasiz va qizg'in kechgan chempionat quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

EK-600 sinfida:

1-o'rin: Javohir Usmonov (Surxondaryo v.);
2-o'rin: Abdulloh Shuhratov (Farg'ona v.);
3-o'rin: Muhammadali Jumanazarov (Surxondaryo v.).

EH-600 sinfida:

1-o'rin: Arslonbek Lolayev (Surxondaryo v.);
2-o'rin: Behro'zbek Anvarov (Farg'ona v.);
3-o'rin: Muhammadiyusuf Rahmiddinov (Surxondaryo v.).

F-2-A sinfida:

1-o'rin: Shahrizoda Muhammadaminova (Andijon v.);
2-o'rin: Mansur Sabitov (Toshkent v.);
3-o'rin: Dilshodbek Eshmurodov (Surxondaryo v.).

F-2-U sinfida:

1-o'rin: Arslonbek Lolayev (Surxondaryo v.);
2-o'rin: Muhammadziyo Nizomov (Farg'ona v.);
3-o'rin: Mustafo Muhammadaliyev (Farg'ona v.).

C-1 sinfida:

1-o'rin: Farhod Javliyev (Surxondaryo v.);
2-o'rin: Dmitriy Zimkin (Toshkent sh.);
3-o'rin: Hayitmurod Omonov (Surxondaryo v.).

C-2 sinfida:

1-o'rin: Munisa Eshniyozova (Surxondaryo v.);
2-o'rin: Avazbek Tursunov (Farg'ona v.);
3-o'rin: Aleksandr Nemerjiskiy (Andijon v.).

C-3 sinfida:

1-o'rin: Valeriy Vardanyan (Farg'ona v.);
2-o'rin: Dilshodbek Eshmurodov (Surxondaryo v.);
3-o'rin: Nail Xakimzanov (Andijon v.).

C-4 sinfida:

1-o'rin: Munisa Eshniyozova (Surxondaryo v.);
2-o'rin: Yuriy Kiselyov (Farg'ona v.);
3-o'rin: Davron Artikbayev (Andijon v.).

C-5 sinfida:

1-o'rin: Akmaljon Abidov (Andijon v.);
2-o'rin: Damir Mutalapov (Farg'ona v.);
3-o'rin: Muhammadali Jumanazarov (Surxondaryo v.).

C-6 sinfida:

1-o'rin: Shahrizoda Muhammadaminova (Andijon v.);
2-o'rin: Yuriy Kiselyov (Farg'ona v.);
3-o'rin: Farhod Javliyev (Surxondaryo v.).

C-7 sinfida:

1-o'rin: Alisher Mirzayev (Farg'ona v.);
2-o'rin: Dilshodbek Eshmurodov (Surxondaryo v.);
3-o'rin: Rahmon Azimov (Surxondaryo v.).

Jamoa hisobida 1-o'rinni Surxondaryo, 2-o'rinni Farg'ona va 3-o'rinni Andijon viloyati jamoalari egalladi.

Musobaqa g'oliblariga "Vatanparvar" tashkilotining diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

"VATANPARVARLIK – OLIY MAQSADIMIZ!"



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Namangan viloyati kengashi tashabbusi bilan Chust tumanidagi "Mehrjon" bolalarni sog'lomlashtirish oromgohida "Vatanparvarlik – oliy maqsadimiz!" mavzusida harbiy-vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.



Tashkilot xodimlari va Qurolli Kuchlar faxriylari tumanning so'lim G'ova qishlog'ida joylashgan oromgohda hordiq chiqarayotgan o'quvchi-yoshlar bilan ularning ona Vatanga bo'lgan munosabatlari va kelajakdagi orzu-umidlari to'g'risida dildan suhbatlashdi.

So'ngra bolalar o'rtasida pnevmatik quroldan o'q otish va stol tennisi bo'yicha sport musobaqalari hamda "Eng yaxshi tasviriy san'at" tanlovi o'tkazilib, yuqori natijalarni qo'lga kiritgan ishtirokchilar esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Tadbir davomida "Vatanparvar" tashkilotining "Motokross", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Raketamodel" bo'yicha sport seksiyalari ko'rgazmalari bolalar va o'smirlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Bunday tadbirlar kelajak avlod ongiga vatanparvarlik, Vatanga muhabbat va harbiy xizmatga hurmat tuyg'ularini singdirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Sayyor qabul

Murojaat ortida inson taqdiri

Urganch harbiy prokuraturasi tomonidan harbiy qism va muassasalarda ommaviy sayyor qabullar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Bu kabi tadbirlarda harbiy xizmatchilar va xodimlar, ularning oila a'zolari, yoshlar, pensionerlarni qiynab kelayotgan muammolarni yoki boshqa ularni qiziqtirgan masalalarni tezkor o'rganib, imkon qadar joyida hal etishga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Shunday qabullarning navbatdagisi Bog'ot tumanida o'tkazildi. Unda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar qamrab olindi.

Jarayonda jami 23 ta murojaat tinglanib, 4 tasi joyida ijobiy hal etilishi ta'minlandi. Murojaatlardan 8 tasi bo'yicha esa huquqiy tushuntirish berildi.

Yechimi vaqt talab qiladigan 11 ta murojaat yuzasidan mutasaddi tashkilot mas'ullariga tegishli ko'rsatmalar berilib, ijrosi nazoratga olindi.

**Adliya podpolkovnigi
Umud NIZAMOV,
Urganch harbiy prokurori**

Vatanparvarlik

Oromgohda sayil

Farg'ona viloyatidagi "Vodiy gavhari" bolalar yozgi oromgohida vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

Unda Farg'ona harbiy prokuraturasi va viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi mas'ullari ishtirok etdi.

Yoshlar o'rtasida sport turlari va milliy o'yinlar bo'yicha bellashuvlar tashkil etildi. Yakunda g'oliblarga va musobaqalarda faol qatnashgan bolalarga esdalik sovg'alar topshirildi.

Shuningdek, jarayonda o'tkazilgan qiziqarli ko'rgazmali chiqishlar ishtirokchilarga yanada ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. So'ngra viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan favqulodda hodisalar, ularning turlari hamda bunday sharoitlarda harakatlanish tartibi haqida tushunchalar berildi.

Bolalarning bu boradagi bilimlarini mustahkamlash maqsadida ularning bevosita qatnashuvida amaliy mashg'ulotlar uyushtirildi.

**Adliya kapitani
Hasanjon ERGASHEV,
Farg'ona harbiy prokurorining
yordamchisi**

O'zbekning jasur o'g'loni Mamadali Topivoldiyev Ikkinchi jahon urushi davrida alohida jasorat ko'rsatgan hamyurtlarimizdan biri. U "Kazbek" taxallusi ostida dushmanga qarshi partizanlar razvedka otryadi bilan jang qilgan. Qahramonimiz jangovar bosqinlarni bostirish va reydlarni amalga oshirish paytida daraxtlarga o'z taxallusini o'yib yozib qoldirardi. Oradan vaqt o'tib, Mamadali Topivoldiyev hamda uning otryadi ko'rsatgan qahramonliklari butun front bo'ylab yoyiladi.

MARDLAR mangu yashaydi

Natsistlar qo'mondonligi "Kazbek"ning boshi uchun 25 ming reyxsmarka, dala hovli va ta'til va'da qiladi. Ayni urush ketayotgan iqtisodiy og'ir sharoitda va'da qilingan bunday mablag', o'sha sharoitda juda katta miqdor hisoblanardi. "Kazbek" natsistlarga qanchalik muammolar tug'dirganligini shundan ham anglash mumkin edi. Mamadali Topivoldiyev esa dushman qo'shinlariga zarba berishdan sira to'xtamasdi. Tinchlikni asrash yo'lida ko'rsatgan ko'pgina jasoratlari inobatga olinib, Mamadali Topivoldiyevga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni beriladi.

Jangda oyog'idan olgan jarohati tufayli Mogilev viloyatining Krugloye tumandagi Pasirevo qishlog'ida quroldosh do'sti Ivan Rilkovning uyida yashirincha davolanadi. Rilkovning onasi Anna

Vasilyevna qishloq tabibi bilan Mamadaliga tibbiy yordam berayotgani haqidagi xabar dushman qulog'iga yetib boradi. Shundan so'ng Anna Rilkovaning uyida tintuv o'tkaziladi. Uning chuqur yerto'lasiga yashiringan "Kazbek"ni topa olmagach, uy yoqib yuboriladi.

Mudofaa vazirligi huzuridagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasiga Belarus Respublikasining Kruglyansk tumani tarix-o'lkashunoslik muzeyi direktori Viia Gapayeva hamda Mamadali Topivoldiyevning tutungan onasi Anna Rilkovaning evarasi Anna Mesheryakova tashrif buyurdi. Dastavval mehmonlar "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi hamda "Shon-sharaf" davlat muzeyi faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Uchrashuv chog'ida majmua rahbariyati hamda "Shon-sharaf" davlat muzeyi mutaxassislari

bilan dildan suhbat qurgan mehmonlar, ushbu maskan faoliyatiga yuqori baho berib, yig'ilganlarga Mamadali Topivoldiyev bilan bog'liq ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni so'zlab berdi.

– Bobomning aytishicha, Mamadali Topivoldiyev katta buvim Anna Vasilyevnaning tutungan o'g'li edi. Ularning ona-boladek bir-birlariga bo'lgan mehr-muhabbatlari shu qadar kuchli ediki, hanuzgacha Pasirevo qishlog'ida tillarda doston bo'lib kelmoqda. Dushman buvimning uyini yoqib yuborgach, ularning boshidan ko'p og'ir sinovlar o'tadi va urushdan so'ng Mamadali Topivoldiyev buvimga shinamgina uy qurib bergan. Ular so'nggi nafasigacha bir-birlaridan doim xabar olib turishgan, – deydi Anna Mesheryakova. – Keyingi avlod sifatida biz ham bu an'anani davom

ettirish niyatida Mamadali Topivoldiyev tug'ilib o'sgan manzillarga borishni niyat qildik. Safarimizni Toshkentda qad rostlagan "G'alaba bog'i" majmuasidan boshladik. Taassurotlarimiz bir olam. Majmua ichida yurarkanmiz, barcha yurtlar qatori o'zbek xalqining ham urush davrlarida boshdan kechirgan qiyinchiliklariga guvoh bo'lganimizni yashirmayman.

Uchrashuv so'ngida tashrif buyurgan mehmonlarga mudofaa vazirining esdalik sovg'alari topshirildi. Qahramonimiz Mamadali Topivoldiyev haqidagi yangi ma'lumotlar va qiziqarli voqealar haqida almashilgan fikrlar uchun majmua mutasaddilari tomonidan belaruslik mehmonlarga minnatdorlik bildirildi.

Sherzod SHARIPOV,
"Vatanparvar"



Muallif suratga olgan

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida Urganch tumanida ham muayyan natijalarga erishilmoqda. Chunonchi, harbiy-vatanparvarlik g'oyalari targ'ib etish, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi tuman o'quv sport-texnika klubida olib borilayotgan ishlar shular jumlasidandir.

YOSHLAR BARKAMOLLIGIGA E'TIBOR QARATILMOQDA



Bu boradagi ishlar ko'lamini oshirish maqsadida tuman hokimligi, harbiy qismlar, mudofaa, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi, mahallalar hamda ma'naviyat targ'ibot markazi tuman bo'limlari bilan hamkorlikda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

– Albatta, "Biz bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz" shiori ostida o'tkazilayotgan bunday tadbirlar yoshlarning qalbidan ona

Vatanga sadoqat hissi, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rin tutadi, – deydi O'STK boshlig'i Davronbek Qodirov. – Shu bois ham klubimiz jamoasi tomonidan tuman yoshlarining jismoniy, ma'naviy-ruhiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yoshlarning jismoniy faolligini oshirishga ko'maklashish maqsadida ularga sportning texnik va amaliy turlari bilan



shug'ullanishlari uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Shu kunlarda klubda faoliyat yuritayotgan "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" hamda "Aviamodel" kabi to'garaklar faoliyati zamon talablari asosida tashkil etilgan. Bu seksiyalarga o'ttiz olti nafardan ortiq yosh jalb etilgan.

Ular nufuzli musobaqalarda yaxshi natijalarga erishmoqda.

Ta'kidlash joizki, mazkur klubda ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash ishlari ham zamon talablari asosida tashkil etilgan. Belgilangan reja asosida "B", "BC", "C", "D" hamda "E" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Ayni kunlarda ham tashkilotda bu yo'nalishdagi faoliyat ko'lami yanada rivojlantirilib, bo'lajak haydovchilarning yetarli darajada bilim olishlari uchun ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda. Tinglovchilarning kasb-hunarlarini puxta egallab olishlari uchun klubda zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

Akbar ALLAMURODOV

Bolalarda yaxshi odatlarni shakllantiramiz

Bugungi kunda ota-onalar farzandlarining ko'p vaqtini kompyuterda o'tkazayotgani, smartfonlariga bog'lanib qolganligi, ochiq havoda kam vaqt o'tkazayotganidan ko'p shikoyat qilmoqda. Xo'sh, farzandlarimiz jismoniy faol bo'lishini ta'minlash maqsadida psixologlar qanday tavsiyalar beradi? Keling, ularning maslahatiga quloq tutamiz!

Bolaning normal rivojlanishi uchun jismoniy faollik nihoyatda zarur. Boshqa sog'lom odatlar singari sport bilan shug'ullanish odatini ham bolalikdan shakllantirgan ma'qul. Quyidagi 10 tavsiya farzandingizning sportga bo'lgan qiziqishini orttirish hamda toza havoda vaqtini ko'proq o'tkazishi uchun yordam beradi:

1. Turli elektron qurilmalardan, gadjetlardan foydalanish vaqtini cheklang. Farzandingiz multfilm ko'rishni, telefonda o'yin o'ynashni kompyuterda qiziqarli videolar ko'rishni qanchalik yoqtirmasin, bunday mashg'ulotlarni cheklash zarur. Ekran oldida o'tkazish uchun berilgan vaqtini toza havoda sayr qilishga almashtirish mumkin.

2. Dam olish uchun vaqt ajrating. Bolalar turli xil vazifalar bilan ortiqcha yuklangan, ya'ni uy vazifasi, darsdan tashqari mashg'ulotlar, xorijiy til darslari. Bunday yuklamalar bilan jismoniy faoliyat qanchalik muhim bo'lmasin, uni unutish oson. Shuning uchun farzandingiz toza havoda yurishi, yugurishi yoki o'ynashi, do'stlari bilan vaqt o'tkazishi uchun kamida bir soat vaqt ajrating. Dam olish kunlari uni jismoniy faoliyatga jalb qilishingiz mumkin.

3. Toza havoda vaqt o'tkazing. Kichik yoshdagi bolalarga ko'chada o'ynash uchun mo'ljallangan o'yinchoqlar eng yaxshi tanlov. Kattaroq bolalarni esa jismoniy mashg'ulotlarga jalb qiling. Uy atrofining tozaligini saqlash, bog'da yordam berish, ko'chatlarga suv quyish, bozor yoki do'konga birga borib kelishni taklif qiling.

4. Uy yumushlarida yordam berishlarini so'rang. Uy yig'ishtirish, idishlarni yuvish, changlarni artishda kichik yordamchilarning mehnati beqiyos. Qolaversa, shu tariqa bolangizni kichkinaligidan uy yumushlarini bajarishga ko'niktirasiz.



5. Farzandingizni maqtang.

Farzandingizni faqat natija uchun emas, urinish uchun ham maqtang! Hamma narsa siz xohlagandek bo'lmasa ham maqtang! Kichkina yordamchi uyda yordam berayotganida, aslida yordam berish o'rniga ishni ko'paytirayotgan bo'lsa-da, uni maqtang. Umuman olganda, yordam berishga bo'lgan har qanday harakatini, urinishini maqtang!

6. O'rnak bo'ling.

Bolalar asosiy ko'nikmalarni ota-onalardan olishadi. Shuning uchun agar farzandingiz sport bilan shug'ullanishini, jismoniy faol bo'lishini istasangiz, unga o'rnak bo'ling. Siz toza havoda vaqt o'tkazishni undan zavqlanishni yoqtirsangiz, farzandingizga ham bunday mashg'ulot yoqishi, shubhasiz.

7. Farzandingiz bilan vaqt o'tkazing.

Bola uchun ota-onasi bilan o'tkazilgan vaqt juda muhimdir. Kechki sayrga chiqish, birgalikda sevimli taomni tayyorlash, shaxmat, futbol yoki voleybol o'ynash yoki shunchaki suhbat qurish mumkin. Bunda siz farzandingizga yaxshi namuna ko'rsatasiz va u bilan ko'proq vaqt o'tkazasiz.

8. Tabiat qo'yniga chiqing.

Yozning issiq mavsumida tabiat qo'yniga sayohatga chiqing. Har doimgi yashash tarzingizga biroz o'zgartirish kiriting. Toza havoda, tabiat bag'rida dam olish uyda bolangizni kompyuter yoki televizor qarshisida o'tirishdan afzal.

9. Sport tugragiga yozdiring.

Farzandingiz uchun yoshiga mos keladigan sport turini tanlang, shunda bola mashg'ulotdan zavqlanadi. Bu suzish, gimnastika, tennis yoki velosport bo'lishi mumkin. Bunda bola bilan maslahatlashib, uning qiziqishlarini hisobga olgan ma'qul.

Pazanda

Shaftolining teri uchun foydali xususiyatlari

So'nggi paytlarda tadqiqotchilar mevalarning teri uchun foydali xususiyatlarini isbotladi. Ushbu mevalardan biri - bu shaftoli. Shaftoli tarkibidagi C vitamin teriga elastiklik beradigan kollagen ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, ushbu vitamin qarishning sababi bo'lgan erkin radikallarni yo'q qiladi.

Shaftolini muntazam ravishda iste'mol qilish immunitetni mustahkamlaydi, ko'plab yuqumli va teri kasalliklaridan himoyalaydi. Yana bir xususiyati terining tez tiklanishiga yordam beradi. Bu meva tarkibidagi oqsil ko'plab hayotiy jarayonlar uchun juda muhimdir.

Meva yoki shaftoli po'stidan tayyorlangan niqoblar nafaqat terini namlaydi, balki husnbuzar yoki kimyoviy pilingdan keyin yuz terisini tezda tiklanishiga yordam beradi.

Shaftoli nafaqat oziqlantiradi, balki kosmetik maqsadlarda ham foydalidir. Masalan, tabiiy yogurt bilan aralashtirilgan shaftoli pyuresi niqobi quruq teri uchun ajoyib namlovchi vositadir. Shuningdek, ko'z ostidagi qora dog'lardan qutulishga yordam beradi.

Shaftoli tarkibidagi C, K, A vitaminlari va beta-karotin teriga ultrabinafsha nurlariga qarshi kurashishda yordam beradi. Ushbu vitamin saraton kasalligining oldini oladi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, A vitaminining yuqori dozalari ba'zi teri saratoni xavfini 32 foizga kamaytiradi.



SHAFTOLILI KOKTEYL

Kerakli masalliq: 0.5 kg shaftoli, 400 ml sut, 400 g muzqaymoq, 2 qoshiq asal, ta'bga ko'ra vanilin, muz bo'laklari.

Tayyorlanishi: shaftolini po'stidan tozalab olamiz. Blendrga sut, muzqaymoq, muz bo'laklari va vanilin, tozalangan shaftolini, asal hamda ta'bga ko'ra vanilin solib, blendr qilamiz. Tayyor bo'lgan kokteylni oz vaqtga muzlatkichga qo'yamiz. Yoqimli ishtaha!

JAZIRAMADAN OSON O'TISHGA YORDAM BERUVCHI 10 MAHSULOT

Yoz kunlari o'z hukmini o'tkazib, jazirama barchamizni konditsioner va ventilyatorlardan foydalanishga majbur qilmoqda. Bunday kunlarda ko'pchilik muzqaymoqlar, mevali sharbatlar va gazli ichimliklar sotib oladi. Bular vaqtinchalik yordam beradi xolos. Ekspertlar jazirama kunlardan oson o'tishga yordam beruvchi 10 ta oziq-ovqat mahsulotidan iborat ro'yxatni tuzib chiqdi.

1. Bodring. Bu issiqdan saqlovchi 100 foizli yoz mahsuloti hisoblanadi. Kun davomida chanqamaslik yoki oshqozonda og'irlik sezmaslik uchun bodringli salat iste'moli kifoya qiladi.



2. Pomidor. Bu mahsulot ham bodringning xususiyatlarini o'zida jamlagan. Pomidorlar issiq kunlardan yaxshi saqlaydi, chunki ularda suyuqlik va vitaminlar katta miqdorda.



3. Loviya. Loviya ter bezlarining me'yorida ishlashini ta'minlaydi va terlashni kamaytiradi.



4. Marjumak. Marjumak organizmda gemoglobin miqdori yetarli bo'lishi uchun muhim bo'lgan qimmatli temir manbai hisoblanadi. Agar gemoglobiningiz me'yorida bo'lsa, siz issiq kunlarda o'zingizni yengil his etasiz.



5. Olma. Parhezshunoslar jazirama kunlarda ko'proq olma iste'mol qilishni tavsiya etadi. Buning boisi ularning vitaminlarga boyligidir.



6. Ko'katlar. Petrushka, kashnich, ukrop, salat barglari, otquloq... Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Ko'katlarning barchasi juda foydali, vitaminlarga, ayniqsa B guruhi vitaminlariga boy, shuningdek ularning 90 foizi suvdan iborat.



7. Yalpiz. Yaqqol sovitish ta'siriga ega. U choy, limonad, shuningdek sho'rva va salatlariga qo'shiladi. Juda issiq kunlarda yalpiz hidining o'ziyoq insonga tetiklik bag'ishlaydi, shu bois yoz kunlari yalpizli efir moyi doim hamrohingiz bo'lsin.



8. Mevalar. Yoz fasli shunday bir mavsumki, u insonga bir yilga yetadigan vitaminlarni yig'ib olish imkonini beradi. Shu bois taomnomangizga mavsumiy mevalar: qulupnay, olcha, smorodina kabilarni kiriting.



9. Sut mahsulotlari. Ular chanqoqni bosish bilan birga oqsil yetishmovchiligini bartaraf qiladi. Sut-qatiq mahsulotlari ko'katlar yoki mevalar bilan yaxshi uyg'unlashadi.



10. Dengiz mahsulotlari. Natriy, kaliy, fosfor, yod, magniy, sink, mis, marganes – bu hali dengiz mahsulotlaridagi foydali minerallarning to'liq ro'yxati emas. Bundan tashqari, dengiz mahsulotlari juda yaxshi hazm bo'ladi.



Kutilmagan, qiziqarli va kulgili faktlar

- Agar chayonga alkohol tomchisi tomizilsa, u aqldan ozib, o'lib qolguncha o'zini o'zi chaqaveradi.
- Amerikaliklarning har sakkiztadan bittasi qachonlardir Makdonaldsda ishlagan.
- Dunyoda sotilgan qayiqning 70 foizi baliq tutishda foydalaniladi.
- Odam uxlayotganida televizor tomosha qilganidan ko'ra ko'proq kaloriya sarflaydi.
- Seldereyni yeyish uchun uning tarkibidagidan ko'ra ko'proq kaloriya sarflash lozim.
- XVIII asrda qimorxonalarda maxsus xodim bo'lib, uning yagona vazifasi politsiya kelib qolganda o'yin soqqalarini yutib yuborish edi.
- Chiling Atakama sahrosidagi Kalama shahrida hech qachon yomg'ir yog'magan.
- Odam umrining olti oyini svetoforming qizil chirog'ida kutish bilan o'tkazadi.
- On – bu soniyaning yuzdan bir bo'lagi.
- Dunyoda termitlar odamlardan 10 baravar ko'p.
- Og'irligi bo'yicha hisoblanganda hamburger yangi avtomobildan qimmat turadi.
- Oying hajmi Tinch okeanidagi suv hajmiga teng.
- Agar odam burgadek sakray olganida u bir sakrashda futbol maydonini hatlab o'tishi mumkin bo'ladi.
- Tovuqning rekord darajada uzoq uchishi 13 soniyaga teng.
- Tipratikan yuragi daqiqasiga 300 marta uradi.
- Agar koka-kola ichimligiga rang qo'shilmaganida uning rangi yashil bo'ladi.
- Uydagi changning asosiy qismini uyda yashovchilarning ko'chib tushgan teri parchalari tashkil etadi.
- Har bir qit'ada Rim nomli shahar bor.
- 1830-yillarda ketchupni dori sifatida sotishgan.
- Har kuni butun sayyora tug'uruqxonalarida 12 nafar go'dak boshqa ota-onalarga adashib berib yuboriladi.
- Oshqozonning shilliq pardasi har ikki haftada yangilanadi.
- Pul banknotlari qog'ozdan emas, paxtadan yasaladi.
- Pashshaga qarshi aerazolalar pashshalarni haydamaydi, aksincha sizni ulardan yashiradi. Sprey pashshalarning sensor tizimini bloklab, ular sizni topa olishmaydi.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

Internet materiallari asosida tayyorlandi.

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: mayor Aziz Norqulov

Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-5801
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 902 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya